Soundness seen as far as likelihood of event appears to be a more dependable basis in separating between set-expressions and variable or free word-gatherings, yet can't be depended upon single out phraseological units. Deciphering a phraseological unit is not a simple matter as it relies upon a few variables: different combinability of words, homonymy, synonymy, the polysemy of phraseological units, and the presence of dishonestly indistinguishable units, which makes it important to consider the specific situation. Additionally, an enormous number of phraseological units have an elaborate expressive part in importance, which generally has a particular public element. The in advance referred to decides the need to get to know the fundamental standards of the overall hypothesis of diction. The accompanying kinds of phraseological units might be noticed: phrasemes and colloquialisms. A unit of steady setting comprising reliant and consistent markers might be known as a phraseme. A colloquialism is a unit of consistent setting which is portrayed by the vital importance of the entire and by debilitated implications of the parts, and in which the dependant and the demonstrating components are indistinguishable and equivalent to the entire lexical construction of the expression. Any sort of phraseological unit can be introduced as an unequivocal miniature framework. During the time spent deciphering phraseological units, useful semantics are chosen by contrasting two explicit phonetic standards. These standards uncover components of resemblance and differentiation. Certain pieces of these frameworks might relate in structure and content (totally or somewhat) or have no adequacy. The principal kinds of phraseological congruities are according to the following: Complete similarities. Halfway congruities. Absence of similarities. Complete

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10

similarities. Complete fortuitous events of structure and content in phraseological units are seldom met with.

"Dark ice" - qora sovuq - silniy moroz

"To carry oil to fire" - alangaga yog' quymoq-podlit maslo v ogon.

"To lose one's head"- (doim) gangib qolmoq - poderyat golovu.

Incomplete congruities of phraseological units in two languages expect to be lexical syntactic and lexico-linguistic different with the personality of significance and style for example their metaphorically close, yet differ in lexical organization morphological number and syntactic plan of the request words.

A.I. Smirnitsky was the first among Russian researchers who focused on sentences that can be treated as complete equations, for example, How would you do? Or then again I beseech you to excuse; It takes different types to make the world; Can the panther change his spots? They vary from every one of the mixes up until this point talked about because they are not identical to words in appropriation and are semantically analyzable. The equations examined by N. N. Amosova are running against the norm semantically explicit, for example, quiet down 'shut up or tell it to the marines (one of the proposed beginnings is told that to the pony marines; such a corps being non-existent, as marines are maritime power, the last articulation signifies 'tell it to somebody who doesn't exist because real individuals won't trust it') frequently such recipes, officially indistinguishable from sentences, are in actuality utilized distinctly as additions into different sentences: the cap fits 'the assertion is valid' (for example "He referred to me a liar as."- "Indeed, you ought to be aware of the cap fits."). Talking about set phrases it is above all else important to separate between metaphorical and non-allegorical set phrases. Non-literal set phrases are interpreted as indicated by the principles that have previously been examined regarding words and free expressions. The really core value here is to recollect the standards of TL³. Metaphorical set phrases merit unique conversation. The primary quirk of these phraseological units is

³ Бытёва Т. И. Семасиологическая интерпретация системных отношений в лексико-семантических группах // Вопросы исследования лексики и фразеологии сибирских говоров. — Красноярск: КГПИ, 2006. — С. 130-152.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10

their particular implying that regularly can't be found from the implications of their components.

Conclusion. It is the significance of the entire, not of discrete words, that ought to be delivered in interpretation. In light of symbolism, phraseological units make the text more expressive; they are likewise frequently liable for elaborate shading of the text. Since the text in TL should be as expressive as it seems to be in SL and described by a similar elaborate shading, it turns out to be vital to find a sufficient variety of interpreting for each phraseological unit. Informal or phraseological articulations are primarily, lexically and semantically fixed expressions or sentences having general importance, which isn't made up by the number of implications of their part parts. A basic element of colloquial (phraseological) articulations is their allegorical, i.e., figurative nature and utilization. Interpretation of phraseologies is an exceptionally muddled issue. The right interpretation is specified by observing the most concordant and comparable words that are generally denied shading in the interpretation as a typical lexical unit.

REFERENCES:

1. Берёзин Ф. М. О парадигмах в истории языкознания XX в. // Лингвистические исследования в конце XX в. Сб. обзоров. — М.: ИНИОН РАН, 2001. — С. 9-25.
2. Бушуй А.М. Заметки о фразеологической системности (словность, деривация, кодификация) // *Studia Russica*. IV. Budapest, 1981. — С. 181-222
3. Бытева Т. И. Семасиологическая интерпретация системных отношений в лексико-семантических группах // *Вопросы исследования лексики и фразеологии сибирских говоров*. — Красноярск: КГПИ, 2006. — С. 130-152.
4. Amosova, N. N. (1963). *Essays on English Phraseology*. Leningrad State University Press.
5. Baker, M. (1992). *In Other Words: A Coursebook on Translation*. Routledge.
6. Cowie, A. P., & Mackin, R. (1975). *Oxford Dictionary of Current Idiomatic English*. Oxford University Press.
7. Fernando, C., & Flavell, R. (1981). *On Idiom: Critical Views and Perspectives*. University of Exeter Press.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10

8. Kunin, A. V. (1996). English-Russian Phraseological Dictionary. Russian Language Publishers.
9. Larson, M. L. (1984). Meaning-Based Translation: A Guide to Cross-Language Equivalence. University Press of America.
10. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. Prentice Hall.
11. Smirnitsky, A. I. (1956). Lexicology of the English Language. Moscow State University Press.
12. Vinogradov, V. V. (1947). Russian Stylistics and Phraseology. Moscow State University Press.
13. Zykova, I. V. (2008). A Practical Course in English Lexicology. Academy Publishing House.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10

TA'LIM MUASSASALARI RAXBARLARINING BOSHQARUV FAOLIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY METODIK ASOSLARI

Najmetdinov Ma'ruf G'ayratovich

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ta'lim muassasalari boshqaruv faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi rahbar va xodimlarning ishlash ishtiyoqini, boshqaruv malakasini oshirish, rahbar, xodimlar boshqaruv malakasini shakllantirishga qaratilgan ishchanlikni oshirish kabi masalalar bayon etiladi.*

Kalit so'zlar: *boshqaruv, personal, menejer, shaxsning individual xususiyatlari, menejment, inson resursi, boshqaruv funktsiyasi.*

Azaldan inson jamoaviy hayot kechirgan va samoviy boshqaruv ta'siri natijasida uning ijtimoiy faoliyatida ham boshqaruvga talabi tobora kuchaygan, rahbarlikka intilish rivojlana borgan. Boshqaruvga talab insoniyatning ijtimoiy faoliyati bilan birga paydo bo'lgan. Qaerda ikki inson umumiy maqsad sari faoliyat boshlar ekan, bu yerda birgalikdagi harakatlarni muvofiqlashtirishga ehtiyoj tug'ildi. Bu sharoitda bir inson rahbar, boshqaruv faoliyatini olib boradi, ikkinchisi esa faoliyatni bajaruvchisiga aylanadi.

Har qanday ijtimoiy mehnat jarayoni u hoh kichik doirada, hoh katta doirada bo'lsin, boshqaruvni talab qiladi. Kimdir xodimlar oldiga maqsad qo'yishi, vazifalarni taqsimlashi, uning bajarilishini nazorat qilishi, kishilarni mehnat qilishiga undashi, ularning harakatini muvofiqlashtirishi lozim.

Hozirgi rahbar ham a'lo mutaxassis, ham haqiqiy tadbirkor, tashkilotchi, ayni paytda o'z haq-xuquqini taniy bilgan kishi bo'lmog'i darkor.

Bugungi kunda har bir rahbar menejerlik ilmini egallab, ishlab chiqarishni, xodimlarni malakali boshqarishga erishmog'i lozim. Bunda asosan qaror qabul qilish jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi bozor iktisodiyoti sharoitida rahbar ham, rahbarlik usullari ham o'zgargan.

“Bugungi kunning eng muhim vazifasi — deb ta'kidlaydilar Muhtaram yurtboshimiz SH.Mirziyoyev, — xayotimizning barcha sohalarida, ayniqsa, boshqaruvda, respublika miqyosida, viloyat, shahar, tuman, qishloq va mahallalarni boshqarishda, tarmoq bo'g'inlarini idora etishda yangicha

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10

fikrlaydigan, qiyin damlarda ma'suliyatni o'z zimmasiga olabiladigan, to'g'ri qarorlar qabul qiladigan, hayot bilan hamqadam yurishga qodir, iymoni pok, bilimdon, ishbilarmon odamlarni topish, ularga ishonch bildirishdan iboratdir”.

Uzluksiz ta'lim tizimining samarali faoliyat ko'rsatishi, eng avvalo, yuksak malakali rahbar kadrlar faoliyati bilan belgilanadi. SHu boisdan pedagogik jamoani boshqarish, ta'limning yuqori ko'rsatkichlariga erishib borishda ta'lim muassasalari rahbarlaridan “boshqaruv” “menejer” malakalariga ega bo'lib borishni talab qiladi. Boshqaruv faoliyatida rahbar va xodimlarning ishlash ishtiyoqini, boshqaruv malakasini oshirish, rahbar, xodimlar boshqaruv malakasini shakllantirishga qaratilgan ishchanlikni oshirishga, diqqat-e'tiborli bo'lishga, xodimlarni jipslashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari pedagogika sohasida qo'llanilib kelinmoqda.

Bugungi kunda ta'lim tarbiyaning samarasi va ta'sirchanligi boshqaruv tizimida faoliyat yuritayotgan rahbarlarning ma'suliyatliligiga, qobiliyatligiga, ishonchligiga, pedagogik mahorati, kompetentligiga, pedagogik muloqati, samimiyligi, adolatparvarligi ta'lim tizimiga qay tarzda yondashishiga bog'liqdir.

Muayyan tashkilotni boshqarish faoliyati ko'p qirrali bo'lib, uning turli sohalaridagi samarali rahbarlik faoliyati turlicha yondoshuv va malakali mutaxassislar ishtirokini talab qiladi. Tashkilot miqyosidagi boyliklarni ikki asosiy guruhga bo'lgan holda – moddiy va nomoddiy ko'rinishlarni qayd etishimiz mumkin.

Nomoddiy boyliklarga shu tashkilot miqyosidagi nafaqat aqliy salohiyat, balki inson omili bilan bog'liq bo'lgan hamma yutuqlar kiradi. Muayyan tashkilotda faoliyat yurituvchi barcha shaxslar - «personal» atamasi bilan nomlanadi. Psixolog olim T.Yu. Bazarov ta'rifi bo'yicha «Tashkilotdagi barcha inson resurslari yig'indisi - personaldir. Bunga tashkilot xodimlari, biron loyihani joriy etishda qatnashuvchi hamkorlar, tadqiqot o'tkazish uchun, strategiya ishlab chiqish, biron tadbirni amalga oshirishda qatnashishga taklif etilgan ekspertlar ham kiradi» [1.95.].

Tashkilotdagi inson resursi - boshqaruvga oid fanlarning diqqat markazida turuvchi mavzu bo'lib, tashkilotning asosiy maqsadiga qay tarzda erishish aynan personalni malakali boshqarish bilan bog'liqdir. Birorta tashkilotning texnologik jarayonini boshqarish masalasi - personal

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10

boshqaruvidan ajralgan holda tahlil qilina olmaydi. SHu o'rinda, mashhur tadbirkor Endryu Karnegining quyidagi so'zlarini eslab o'tish o'rinlidir: «Menga fabrikalarimni qoldirib, xizmatchilarimni olib keting va yaqin orada zavodlarim hududida o'tlar o'sib ketadi. Fabrikalarimni olib qo'yib, odamlarimni qoldiring va yaqin orada avvalgilaridan yaxshiroq, yangi zavodlarni quramiz».

Qayd etilgan asosiy boshqaruv kontseptsiyalari o'z davriga xos bo'lgan personal boshqaruv uslublarini ifodalaydi. Hatto ayni paytda ham turli tashkilot va rahbarlar sanab o'tilgan yondoshuv elementlarini o'z faoliyatida qo'llab keladilar. Tashkilot rahbari mavjud iqtisodiy ahvol, qo'l ostidagi xodimlar xususiyatiga asoslangan holda turli yondoshuvlardan birontasiga urg'u berishi, tashkilot manfaatidan kelib chiqib, u yoki bu yo'nalish modellarini jamoalar boshqaruviga tatbiq etishi mumkin. Ammo, ko'zlangan maqsadga tashkilotdagi personalning faol ishtiroki orqali erishmoqchi bo'lgan rahbar, iloji boricha o'z xodimlarida tashabbusga moyillik, ish natijasi uchun yuksak mas'uliyat uyg'ota olishi lozim. Aynan shu maqsadni ko'zlangan rahbar iloji boricha inson resurslari deb nomlanuvchi yondoshuvga asoslanishi o'rinlidir.

Fanda boshqaruv tushunchasi tizimning o'z hayot faoliyatini ta'minlash jarayoni sifatida tushuniladi. Bunday tizimlar qatoriga biologik, texnik, ijtimoiy tuzilmalar kiradi. Boshqaruv tuzilma sifatida: boshqaruvchi va boshqariluvchi bo'laklarga ajratiladi.

Boshqaruv o'z tasarrufidagi boshqariluvchi bo'lakka muntazam, rejali va maqsadga yo'nalgan tarzda ta'sir kuchiga ega. Bunday o'zaro faoliyat tizimning ishchanlik qobiliyatini ta'minlaydi. Boshqaruvdagi tadqiqotlar, kibernetika fani yuzaga kelishi tufayli jadal sur'atlar bilan rivojlanib, murakkab tuzilmani boshqarishning ilmiy asoslangan tavsiyalari amaliyotga tatbiq etila boshlandi.

Boshqaruv bilimlari ko'p jihatdan davr ehtiyojini aks ettiruvchi asosiy manba bo'lib hisoblanadi. Boshqaruv jarayoni, bir tomondan, tuzilmaning yaxlitligini ta'minlasa, ikkinchi tomondan, uni yanada takomillashtirish va rivojlantirish imkonini beradi. SHu o'rinda boshqaruvning ikki asosiy funktsiyasi farqlanadi: maqsadga yo'naltiruvchi va tashkiliy funktsiyalar.

Maqsadga yo'naltiruvchi funktsiya tuzilmani yanada mukammallashtirish maqsadiga yo'naltiradi. Tashkiliy funktsiya esa

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10

tuzilmaning maqsadga erishishdagi ichki tartibi va uning turli qismlari o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni ta'minlaydi.

Yuqoridagi asosiy ikki boshqaruv funktsiyasi qator vazifalar orqali amalga oshadi. Masalan, maqsadga yo'naltiruvchi funktsiyani ado etishda faoliyat tarkibiga:

- natijani prognozlash;
- maqsad sari faoliyatni rejalash;
- amalga oshirish motivatsiyalari kiradi.

Maqsadga yo'nalgan faoliyatni amalga oshirish esa tashkiliy funktsiyalar orqali ta'minlanadi. Bu sohadagi asosiy vazifalardan biri faoliyatni nazorat etish va kuchlarni safarbar etishdir. Umuman olganda nazoratni amalga oshirish boshqaruvning ikkala funktsiyasi uchun ham umumiy bo'lgan universal xususiyat bo'lib, u boshqaruvning har qanday jarayonida doimiy qayta aloqani ta'minlab turadi. Boshqaruv fanidagi asosiy tushunchalardan biri qayta aloqa tushunchasi bo'lib, bu ibora tuzilmaning o'z maqsadi sari intilishi qay yo'sinda ketayotgani va qanday jihatlarni o'zgartirish, yanada mukammallashtirish haqida ma'lumot olishni anglatadi.

Yuqorida qayd etilgan boshqaruvning ikki asosiy funktsiyasini alohida talqin etish juda shartli bo'lib, aslida ular ajralmas va yagona jarayonlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bazarov T.Yu. Upravlenie personalom. M., 2002, s. 95
2. Mardonov SH. Pedagog kadrlarni ta'limiy qadriyatlar asosida tayèrlash va malakasini oshirishning pedagogik asoslari. Ped.fan.dok. ...diss.- T.: 2006.- 302 b.
3. Ma'murov B.B. Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik èndashuv asosida ta'lim jaraènini loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish tizimi. Ped.fan.dok....diss. avtoref. –T.: 2018. - 32 b.
4. Mirsolieva M. T. Oliy ta'lim muassasasi pedagog kadrlarining informatsion kompetentligini rivojlantirish masalalari// Uzluksiz ta'limda kadrlar tayèrlashning nazariy-amaliy masalalari. Xalqaro anjuman materiallari. – Toshkent, 2014. -98-102 b.
5. Mirsolieva M.T., Sultonov A.SH. Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy mahoratini rivojlantirishga akmeologik èndashuv// Pedagogik mahorat. - Buxoro, 2014.-№ 6.- 37-40 b.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

Researchbib Impact factor: 11.79/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10

6. Mirsolieva M.T. Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirish masalalari// Zamonaviy ta'lim. - Toshkent, 2018. - № 2.- 23-28 b. (13.00.00.№ 10).

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10

ABU ALI IBN SINONING YOSH AVLOD TARBIYASIGA DOIR FIKRLARI

Boynazarova Sayyora Ro'ziqulovna
Termiz muxandislik va agrotexnologiyalar universiteti
katta o'qituvchisi

Kalit so'zlar: Abu ali ibn sino, mutafakkir, falsafa, astronomiya, biologiya, meditsina, psixologiya, etika, pedagogika.

O'rta asr boshlaridagi boshqa ilg'or mutafakkirlar singari Ibn Sino ham yosh avlodga aqliy tarbiya berishga muhim ahamiyat beradi, uning fikricha, aqliy tarbiya ilm-fanlarni egallash bilan bog'langan bo'lishi kerak.

Ibn Sino haqiqiy gumanist sifatida kishining o'z aqlini har tomonlama taraqqiy ettirish va haqiqatni anglash imkoniyatiga ega ekanligiga ishondi. Shuning uchun u bu fikrni noto'g'ri deb hisoblovchi o'z davrining «donolariga» qarshi keskin kurash olib bordi. U fan va madaniyat taraqqiyoti haqiqatga yo'l ochishi mumkinligini isbot qildi. Bu sohada boshqalarga o'rnak bo'lib, o'zining tolmas kuzatuvchi va tekshiruvchi ekanligini ko'rsatdi. U o'z oldiga ilm-fanlarni chuqur o'rganish va umumlashtirish vazifasini qo'ydi.

U she'rida bu haqda shunday deb yozadi:

Mayli man bar muntahon maqsadi oliy buvad.

Poyap poyon naxohad hechgoh xotir maro.

Xoham in ki vorasam to kullai maqsudi xud.

Yoki dar in roh xobonad ajal oxir maro.

Mazmuni:

Mening istagim oliy maqsadlarning cho'qqisiga yetishdir, ammo mening xotirim quyi tomon zinapoyalariga tushishni istamaydi. Men bu yo'lda yo butun maqsadlarimga yetaman, yoki ajal meni uxlatib (o'ldirib) qo'yadi.

Ibn Sino o'z tekshirishlarini og'ir va murakkab masalalardan boshlab to to'la hal qilmaguncha qo'ymas edi. U o'zining hodisalarni tekshirishga munosabatini tubandagicha bayon qiladi:

«Biz Aristotel falsafa maktabi tekshiruvchilari usulini tanlaymiz. Biz keraksiz narsalarga, to'g'riligi oson aniqlanadigan masalalarga butun kuchini sarf qilayotgan, uni tekshirayotgan ko'p fan kishilarini ko'rdik. Bunday

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10

kishilar isbotlashni talab qiladigan og'ir masala va faktlarni tez tashlab ketadilar. Biz boshqa yo'ldan boramiz».

Ibn Sino har tomonlama chuqur bilimga ega bo'lgan buyuk siymo ekanligini o'z zamonasidagi barcha bilim tarmoqlariga o'z hissasini qo'shganidan bilish mumkin. Uning asarlarida: falsafa, astronomiya, biologiya, meditsina, psixologiya, etika, pedagogika va boshqa sohalarga oid ilmiy jumboqlar yoritilgan.

Ibn Sino qattiq ishonch bilan shunday deb yozadi:

Az qa'ri gili siyoh to avji Zuhal,
Kardam hama mushkiloti getiro hal.
Birun chastam zi qaydi har.

Har band kushuda shud magar bandi ajal

(Mazmuni: Qora tuproq qa'ridan tortib to Zuhad (Saturn) cho'qqisigacha bo'lgan dunyoning hamma mushkul masalalarini hal qildim. Men har qanday makr va hiyla tuzog'idan qutulib chiqa oldim-u, lekin ajal bandini yecha olmadim.)

Haqiqatan ham Ibn Sinoning o'z davridagi barcha fanlarni mukammal egallab olganligini, bunga esa u o'zining kuchli qobiliyati bilan erishganligini ko'ramiz.

Ibn Sino falsafiy fanlarning nazariy qismini tashkil etuvchi uch gruppaga fanlarining barchasini, o'z navbatida, asosiy qism va tarmoqlarga bo'ladi. Jumladan, tabiat to'g'risidagi fanlarni sakkiz qismga ajratadi.

Birinchi qismi butun tabiatga xos bo'lgan umumiy masalalar bilan shug'ullanadi, jumladan, u materiya, forma, harakatlantiruvchi kuchga bo'lgan munosabat, hatto birinchi turki to'g'risida ham bahs etadi.

Ikkinchi qismi dunyo asosini tashkil etuvchi jismlarni, ya'ni koinot va unda mavjud bo'lgan barcha narsalarni o'rganadi.

Ibn Sino o'z asarlarida kishilarni, ayniqsa yoshlarni fanni egallashga, bu sohada kamolotga erishish uchun intilishga chaqiradi. Ibn Sino fikricha, fan-ilm insonga xizmat qilishi kerak. Olim tabiat qonunlarini ochishi va uni avlodan-avlodga berishi kerak. Ilmni egallash jarayonida har qanday to'siqlar uchraydi, kimki fan cho'qqisini egallashga intilsa, u maqsadga intiluvchan, qiyinchiliklarni yengishga tayyor bo'lishi kerak. Bunda kishining botirligi va jasurligi katta rol o'ynaydi.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10

Bu haqda Ibn Sino: “Ey birodarlar! Odamlarning botiri mushuklotdan qo’rqmaydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qo’rqog’idir” , deb yozadi.

Ibn Sino ilm-fanlarni egallagan, uni xalq uchun foydalanadigan kishilarni eng botir kishilar deb hisoblaydi. U o’zining “Kitobul ishorat fil mantiq val hikmat” asarida “Ma’rifatli kishi botir, u o’limdan qo’rqmaydigan saxiy bo’lishi kerak va uning fikriniyati haqiqatni bilish bilan band bo’lishi kerak” deb yozadi.

Ibn Sino ilmsiz olg’a qarab harakat qilish mumkin emasligiga chuqur ishonadi. U ilmga butun hayotini, butun vujudini bag’ishlashga chaqiradi. Ibn Sino o’z faoliyatida diniy aqidachilarga, ilm va fan bilan shug’ullanadigan kishilarni qoralaydigan shaxslarga qarshi qattiq kurash olib boradi. Ular ustidan kulib:

Bo in du-se nodonki chunin medonand.

Az xalq, ki donoyi jahon ononand.

Har bosh, ki in jamoat az farti xariy,

Har ki o’ naxarast, kofirash mexonand.

deb yozadi.

(Mazmuni: johilligi va ahmoqligi tufayli o’zini dunyoda dono deb biladigan bu ikki-uch nodonlar bilan munosabatda bo’lganingda, sen ham eshaksifat bo’l. Chunki eshaksifat bo’lmagan har bir kishini eshakligi hadidan oshib ketgan bu guruh kishilar kofirga chiqarib qo’yadi.)

Boshqa bir joyda u johil kishilarni ko’rlar bilan tenglashtirib qo’yadi: “Ko’r odam qo’yoshni ko’ra olmaganidek, bu johillar to’g’ri yo’lni ham ko’ra olmaydilar”, deb yozadi va ulardan saqlanishga chaqiradi. Shuning uchun Ibn Sino o’zining ayrim asarlarini hamma uchun, ayrimlarini esa faqat o’z maslakdoshlari va shogirdlari uchun yozdi. O’Z shogirdlariga yurak sirlari haqida qilgan murojaatlaridan birida Ibn Sino: “bu sirlarni faqat menga ancha yaqin shogirdlarim egallasin uchun ochyapman, lekin yetuk bo’lmagan kishilarga bu sirlarni ochishga ruxsat qilmayman” , deb yozadi.

Ma’lumki, Ibn Sino yetuk bo’lmagan kishilar deb dindor, fanatik va johillarni tushunadi. U hamma narsani dinga bog’laydigan kishilardan ilmiy fikrlarni sir tutishni ogohlantiradi.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10

“Hamma so’roqlardan siringni saqla va ehtiyot qil, aqlli bo’lish ehtiyotkorlikdan boshqa narsa emas, agar sirni saqlasang u sening asiring va sen uni saqlay olmasang unga asirsan”.

Ibn Sino kishi aqlini jaholatparastlikka qarama-qarshi qo’yadi. U o’z asarlarida diniy aqidalarga qarshi fikr va nazariyalarini oldinga suradi. U aql kuchiga ishonadi, xudo obro’siga va diniy dogmaga ko’r-ko’rona ishonishga qarshi turadi.

Diniy fanatiklar tomonidan quvg’inga uchramaslik uchun Ibn Sino o’z qarashlarini johillardan yashirishga majbur bo’ladi.

Ulug’ mutafakkir ilmlarning insoniyat uchun ahamiyatini aniqlabgina qolmasdan, balki ayrim fanlarning maqsadi va vazifalariga aniq ta’rif berishga ham harakat qiladi, uning kishilik jamiyati uchun amaliy ahamiyatini ham ko’rsatib beradi.

Ibn Sino yaxshilik bilan yomonlikning, lazzat bilan alamning munosabatlarini ko’rsatib berdi.

Yaxshilik bilan yomonlik turli darajada o’zg’arib turishi mumkin. Masalan, g’azab o’zi salbiy xususi yat bo’lsa-da, u dushman ustidan g’alaba qilishda albatta bo’lishi shart. Lazzat deganda, ba’zilar yaxshi kiyinish va yaxshi ovqatlanishni tushunishlari ham mumkin. Lekin Ibn Sino buni keng ma’noda olib tushuntiradi. Masalaga oqilona qaraganda, – deydi olim, – lazzatning boshqa manbalari borligini ham ko’rish mumkin. Chunonchi mo’l-ko’lchilik, saxiylik, hotamtoylik, maqtovga sazovor bo’lmoq kabi. Shunday qilib, lazzat va rohatning turli manbalari mavjud.

Kishi tarbiya talab qilgan darajada eng yaxshi narsalarni idrok qilishi va o’ziga singdira borishi kerak.

Ibn Sinoning fikricha, yaxshilik bilan yomonlik, lazzat bilan alam etkaning bosh masalalari bo’lib hisoblanadi.

Bulardan ko’rinadiki, Abu Ali ibn Sino etkaning asosiy jumboqlariga va axloqiy tarbiya masalasiga oqilona qaragan. Tarbiya, avvalo kishilarda mehnatga va voqea-hodisalarga oqilona qarashni o’rgatish kerak. Chunki, kishidagi hamma yaxshi xususiyatlar va butun insoniyat baxti ana shu aql va donolik asosida yuzaga keladi, deb uqtiradi buyuk mutafakkir. Uning bu fikrlari g’oyat qimmatlidir.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10

Abu Ali ibn Sinoning ilmiy-pedagogik qarashlarida axloqiy tarbiya masalasi markaziy o'rinlardan birin oladi. Uning fikricha, kishi aqliy va jismoniy tomondan qanchalik yetuk bo'lmasin, agar undagi bilim va kuch axloq normalariga mos tushmasa, u kishi jamiyatning haqiqiy a'zosi hisoblana olmaydi va u jamiyatga foyda keltira olmaydi. Ibn Sino aqliy va jismoniy mehnatni bir-biri bilan chambarchas holda olib qaraydi va insonning har tomonlama kamol topishi lozim ekanligiga alohida e'tibor beradi.

Axloqi past kishi jamiyatga faqat zarar keltiradi, deydi olim. Uning fikricha, yaxshi axloqli bo'lish tarbiyaning nechog'lik yaxshi bo'lishining samarasidir. O'zi uchungina intiluvchi kishilarning axloqini Ibn Sino yaxshi axloq deb hisoblaydi. Yaxshi axloqli kishi bo'lish uchun, avvalo, tarbiyaning roli muhimdir. Yaxshi axloqli kishida insonning eng yaxshi xususiyatlari mujassamlashgan bo'lishi kerak. Chunonchi, unda: xalqparvarlik, haqiqiy do'stlik, kelajakka qat'iy ishonch, mustahkam iroda, tadbirkorlik va mehnatga muhabbat, do'stlarga chuqur izzat-hurmat va dushmanga nisbatan o'tkir nafrat kabi xislatlar bo'lishi kerak. U albatta ijodkor va yaratuvchi bo'lishi kerak.

Ibn Sino kishining kishiga zo'ravonlik qilishini qat'iy qoralaydi. Abu Ali ibn Sinoning axloq va axloqiy tarbiya haqidagi qarashlari uning chuqur gumanizmi, butun insoniyatga va jamiyatga bo'lgan zo'r muhabbatidan kelib chiqadi.

Ibn Sino axloqiy tarbiya masalalarini pedagogik aspektda hayron qolarli darajada chuqur yoritib beradi. Uning qarashlarining ahamiyati shundaki, u ilg'or kishilar va mehnatkash xalqdagi: yaxshi sifatlarni real va aniq ko'ra oldi, unga to'g'ri baho berdi. Shuningdek, u feodal-aristokratlardagi, fanatiklar va din ahllaridagi salbiy xususiyatlarni qoraladi. Ulardagi vatan va xalq oldidagi burchini sezmaslikni, faqat o'zi uchun yashab, shaxsiy huzur-halovati uchun kurashuvchi, o'z manfaatini umum manfaatidan ustun qo'yish kabi yaramas tomonlarni fosh qildi.

Roimning fikricha, bilimdonlik, mustahkam irodalilik, to'g'rilik, adolatlilik, mardlik, qahramonlik kabi xislatlar kishining yaxshi xususiyati, yaxshi "yo'ldoshidir". Munofiqlik, aldamchilik, dilsiyohlik, ig'vogarlik, fitnachilik kabi salbiy xususiyatlarni kishining yomon "yo'ldoshi" deb hisobladi.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10

Salbiy xususiyatlar kishida ko'p vaqtlar saqlanib turishi mumkin, har vaqt, har qadamda kishini yo'ldan urib, uni har xil ko'ngilsiz voqealarga duchor qilishi mumkin, deydi olim. Shuning uchun ham Ibn Sino bu kabi salbiy xususiyatlardan tezroq saqlanish kerakligini uqtiradi, toki u ildiz yoyib odat tumiga kirib qolmasin, deydi. Buning uchun esa kishi mustahkam irodali bo'lishi kerak, agar kishining irodasi mustahkam bo'lsa, unda salbiy xislatlar bo'lmasligi mumkin. Ibn Sino kishilarni, ayniqsa yoshlarni yaramas orzu-havaslariga berilishdan saqlanishga chaqiradi. Maishatparastlik, boylikka, ichkilikbozlikka intilish kabi yomon xususiyatlarga aslo berilmaslik kerak, chunki bularning oqibati yomon bo'ladi, deb uqtiradi.

Adabiyotlar:

1. Karimov Islom Abdug'anievich. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.–Toshkent: O'zbekiston, 2011. – 440 b.
2. Qayumov Aziz. Abu Rayhon Beruniy va Bu Ali ibn Sino. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1978. – 240 b.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10

INGLIZ TILIDA METAFORANING BADIY USLUBDA IFODALANISHI PAULO KOELONING “ALKIMYOGAR” ASARI MISOLIDA

Ro'zmetova Shohida Ravshanbek qizi

Urganch Davlat Pedagogika Instituti

Filologiya va tarix fakulteti,

Xorijiy filologiya kafedrasida ingliz tili fani o'qituvchisi

ruzmetova.shohida9119@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslikda eng ko'p qo'llaniladigan ko'chirma turi hisoblangan metafora haqida so'z yuritiladi va aynan butun dunyoda kitobxonlar tomonidan eng ko'p sevib o'qiladigan bestseller asar Paulo Koeloning “Alkimyogar” asarida qo'llanilgan metaforalar izohlanadi. Shuningdek ingliz tili va o'zbek tilidagi mazkur asar tarjimasida qo'llanilgan betakror metaforalar har ikki tilda qay tarzda ifodalanishi o'xshash va farqli jihatlari aniq misollar bilan ko'rsatilgan.

Аннотация. В этой статье говорится о метафоре, которая считается наиболее используемым типом цитаты в лингвистике, и объясняются метафоры, использованные в бестселлере Пауло Коэльо «Алхимик», пользующемся наибольшим успехом у читателей во всем мире. Также показаны уникальные метафоры, использованные при переводе данного произведения на английский и узбекский языки, с наглядными примерами того, как они выражены на обоих языках.

Abstract. Abstract. This article talks about metaphor, which is considered the most used type of quotation in linguistics, and explains the metaphors used in Paulo Coelho's bestseller The Alchemist, which is the most loved by readers all over the world. Also, the unique metaphors used in the translation of this work in English and Uzbek are shown with clear examples of how they are expressed in both languages.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, til, metafora, o'xshatish, an'ana, expressivlik, qisqargan o'xshatish, o'xshatish subyekti, o'xshatish obyekt.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10

Ключевые слова: языкознание, язык, метафора, сравнение, традиция, выразительность, редуцированное сравнение, предмет сравнения, объект сравнения.

Key words: linguistics, language, metaphor, simile, tradition, expressiveness, reduced simile, subject of simile, object of simile.

Jahon vao`zbek yozuvchilari o`z asarlarida metaforalardan juda keng foydalanadilar. Metafora - adabiyot uchun tomchi suvdek muhim. Chunki yozuvchilar yoki shoirlar o`z asarlariga badiiy bo`yoq berish uchun yoki bo`yoqdorlikni yaratish uchun metaforalardan juda ko`p foydalanishadi. Ba`zan esa bir metafora butun bir gapning tarjimasi ham bo`lishi mumkin, agar bu vosita olib tashlansa, matn o`z ma`nosini yo`qotishi ham mumkin. Metafora quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

1. Metaphors can make prose more muscular or imagery more vivid. Metafora tasvirni yoki jumlani yanada aniqlashtirish uchun xizmat qiladi.
2. Writers frequently turn to metaphors to describe people in unexpected ways. Odatda yozuvchi metaforadan odamlarning turli kutilmagan holatlar bilan tasvirlash uchun ishlatadi.
3. Metaphors can help “visualize” a situation or put an event in context. Metafora mavjud vaziyatni tasavvur qilish yoki holatlarni aniq contextda tushunishga yordam beradi
4. To entertain and tickle the brain, metaphor examples sometimes compare two extremely unlike things. Ba`zan bu san`at turi orqali ikkita bir-birga o`xshamagan narsalar taqqoslanadi.
5. Metaphors can help frame abstract concepts in ways that readers can easily grasp. Metafora mavhum tushunchalarning o`quvchi uchun tushunarli yo`llar bilan yetkazib berish uchun xizmat qiladi. Bunda eng asosiysi yozuvchining metaforadan foydalana olish va badiiy tasvir vositalaridan farqlayolish qobiliyatiga hamda ushbu vositadan foydalanishining aniq maqsadiga uzviy bog`liqdir. Sababi o`quvchiga bir mavhum tushunchani aniq holda yetkazib berish yoki kam so`z orqali ko`p ma`no anglatuvchi jumlar yaratish kitobxonning kitob mutoolasi jarayonida duch kelishi mumkin bo`lgan tushunmovchiliklarning oldini olishda muhim hisoblanadi.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10

Endi Paulo Koeloning” Alkimyogar” qissasida qo‘llanilgan metaforalarni tahlil qilishdan oldin uning hayoti va ijodiy asarlaridagi jozibadorlik, ma’no ko‘chimlaridan qanday ustalik bilan foydalanib kitobxonlar ko‘nglidan joy oluvchi betakror ijod namunalarini yaratishlari haqida ma’lumotlar beramiz.

Paulo Koelo bugungi jahon adabiyotining eng mashhur yozuvchilaridan biridir. U Braziliyada yashaydi, portugal tilida ijod qiladi. Uning romanlari jahonning deyarli barcha tillariga tarjima qilingan. XX asrning 90-yillarida yaratilgan «Alximik» va «Beshinchi tog‘» romanlari, ayniqsa, katta shuhrat qozondi.«Alximik»ni ajoyib ibratli ertak, deb ham atashadi. Adibning o‘zi yozganidek, romanda hikoya qilingan yosh cho‘pon yigit Santyagoning sayohati bilan bog‘liq voqealar asosida yotgan tub ma’no-mazmun — bu «O‘z Taqdiring» tushunchasidir.

Muallifning so‘zlariga ko‘ra, unga yozish uchun atigi o‘n besh kun kerak bo‘lgan. Garchi birinchi nashr 900 nusxada sotilgan bo‘lsa-da, braziliyalik yozuvchining qat‘iyati o‘z samarasini berdi . 1990-1998 yillarda asar 50 dan ortiq nashrni qo‘shib, kelgan o‘n million nusxadan oshdi.¹

Paulu Koeloning “Alkimyogar” qissasida men quyidagi metaforaga oid misollarni topdim:

- “Insonning Yerdagi umri mobaynida amalga oshiradigan ishlari nimalardan iborat? O‘z taqdiri yo‘ldan borib, ko‘ngliga tukkan orzu-umidlarini amalga oshirishi uchun insonga eng zarur narsa nima?..”²
- Romanda hikoya qilingan cho‘pon bola Santyagoning sayohati bilan bog‘liq voqealar asosida yotgan tub ma’no-mazmun— bu “O‘z Taqdiring” tushunchasidir. “O‘z taqdiring” nima degani? Bu Xudo tomonidan bizga buyurilgan, umrimiz mobaynida ado etishimiz lozim bo‘lgan oliy majburiyat, har qaysimizning bosib o‘tdigan o‘z yo‘limizdir. Biz har safar biror-bir amalni quvonch va hafsala bilan bajarganimizda, o‘z taqdirimizga mos tarzda ish tutgan bo‘lamiz. Biroq yorug‘orzu-niyatlarga peshvoz chiqishday baxtga erishmoq uchun bu yo‘ldan matonat bilan o‘tish har kimga ham nasib etavermaydi.

Bu jumalarda yozuvchi “taqdir yo‘li” iborasini ishlatgan. Aslida yo‘l real olib qaraganda o‘z ma’nosida biz bosib o‘tdigan yo‘lak, ko‘chadir. Taqdir yo‘li esa majoziy ma’noda umrimiz davimida biz kechirgan kechmishlar, yaxshi-yomon

¹<https://www.actualidadliteratura.com/uz/Alkimyogar/>

²Paulo Koelo “Alkimyogar” Toshkent-2022 3-bet

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10

kunlarimiz va undan olgan saboqlarimiz, biz uchratgan insonlar-u ular bizga bergan saboqlardir. Barchasi taqdir yo‘limizda biz guvoh bo‘lgan vaziyatlar ekanligi chiroyli metafora bilan ifodalangan.

■ “Xo‘sh, nima uchun hammaning ham istak vaorzulari ushalavermaydi? Bunga to‘rtta to‘siq xalal beradi. Birinchisi shundan iboratki, go‘daklik paytdayoq, hayotda erishishni juda istagan narsalarga intilganimizda, yo‘q, bu narsalarga erishib bo‘lmaydi, degan gapni quloqqa quyib qo‘yishadi. Bola: harchand urinmay, baribir o‘zim xohlagan narsaga erisholmayman, degan fikr bilan ulg‘ayadi. Shu tariqa, yillar mobaynida qalbida turli xil shubha-gumonlar vaqo‘rquvlar ildiz otadi, umidsizlik va aybdorlik tuyg‘usi kuchayib boradi.”³

Bilamizki, to‘siq bu biron narsaning yo‘lini to‘suvcchi g‘ovdir. Insonning o‘z maqsadiga yetishtirishga to‘siq bo‘lish esa majoziy ma’noda qo‘llangan bo‘lib shu niyatimizning amalga oshishi uchun ko‘rinmas g‘ov bo‘lib xizmat qilayotgani ajoyib metaforik birikma bilan ifodalangan.

■ “Va bir kun kelib, O‘z Taqdirini yashash istagi shu og‘ir yuk ostida qolganini anglaganda, o‘ziga in’om etilgan oliy imkonni yo‘qotib qo‘yganday tuyuladi. Biroq aslida bu imkon uning qalbida yashayotgan bo‘ladi. Shunga qaramay, kishi qalbi tubidagi orzu-niyatini yuzaga chiqarishga, amalga oshirishga bel bog‘lab kirishguday bo‘lsa, uni yana bir sinov kutadi: bu— sevgi, mehr-muhabbatdir.”

Bu ifodalarda “og‘ir yuk” ifodasi ko‘chma ma’noda qo‘llanagn bo‘lib, Og‘irligi ma’lum massaga teng bo‘lgan yuk emas, balki tazyiq va dardi, ushalmagan orzusi yoki zimmasidagi mas’uliyat va vazifalar shu metaforik timsol bilan ifodalanmoqda.

■ “Insonga chindan yaxshilikni ravo ko‘radigan, unga doimo yelkasini tutishga shay odam uni tushunishga va qo‘llab-quvvatlashga tayyor bo‘ladi. Kishi sevgining to‘siq emas, balki tayanch ekanligini anglab yetgan chog‘da, unga uchinchi to‘siq xavf soladi: bu— omadsizlik va mag‘lubiyatlardan qo‘rqish tuyg‘usi. O‘z orzulari yo‘lida kurashayotgan odam boshqalardan ko‘ra kuchliroqzahmat chekadi, harakatlari zoye ketayotgan damlarda esa u, odatdagiday, “bo‘lsa bo‘lar, bo‘lmasa g‘ovlab ketar”, degan maslakka iyak suyamaydi.”

³PauloKoelo “Alkimyogar” Toshkent-2022, 4-bet

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10

Bu jummalarda esa “to‘siq va tayanch” bir-biriga zid bo‘lgan so‘zlar qo‘llanilib o‘zgacha metaforik joziba kasb etgan. Barchaga ma’lumki, tayanch bu biron narsani ushlab muvozanatda turishiga yordam beruvchi vosita hisoblanadi, sevgining “tayanch” deb ifodalanishi esa bu mo‘jizaviy tuyg‘uning insonga ilhom berishi, qiyin vaziyatlarda inson umidsizlikka uchragan paytlarda unga ilinj bera olishi, inson jabr chekkan vaziyatlarda yana oyoqqa turib o‘zini o‘nglashi uchun beradigan ilhomi chiroyli metaforik ifoda sifatida qo‘llanilgan.

Ko‘rib turganimizdek metafora har ikki tilda o‘ziga xos joziba kasb etgan va tarjimonning mahorati tufayli bazi bir metaforalar har bir tilning o‘ziga xos xususiyatiga asoslanib qo‘llanilgan. Binobarin metafoarning badiiy asarda qo‘llanilishi o‘ziga xos tasirchanlik expressivlik ma’nolarini kuchaytirgan.

References:

Paulo Koelo “Alkimyogar” Toshkent-2022

Paulo Coelho “The Alchemist”

Maruzo J. Dictionary of linguistic terms. - M.: URSS, 2004.

M. Mirzayev, S. Usmanov, I. Rasulov. Uzbek language. -T.: Teacher, 1970.

Mirtojiev M. Polysemy in the Uzbek language. - T.: Science. 2010.

Mirtojiev M. Semasiology of the Uzbek language. - Tashkent: Classic word. 2010.

Revised, updated 3rd edition. - T.: Ilm Ziya, 2010. - 223 p.

<https://uz.warbletoncouncil.org/metafora-ejemplos-3279>

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

THE ROLE OF POETRY IN FOREIGN LANGUAGE ACQUISITION

Nematullaeva Muslimakhon Rakhmatullo kizi

Student of the third English language faculty, UzSWLU

e-mail: muslimanematullayeva797@gmail.com

Sobirova Asilabonu Aziz kizi

Student of the 3rd English language faculty,

Uzbekistan state world languages university

ABSTRACT

This article is to highlight the role of poetry in language acquisition (LA), emphasizing its unique contributions to linguistic, cognitive, and cultural development. While traditional language learning focuses on structured methodologies, poetry offers learners an immersive, creative approach to mastering a new language. It enhances linguistic skills through its complex syntax, rich vocabulary, and rhythmic pronunciation. Cognitively, poetry promotes critical thinking, improves memory retention, and fosters creative expression. Culturally, poetry serves as a bridge to understanding the target language's deeper societal and emotional contexts. Despite some challenges, such as its abstract nature, poetry remains a valuable tool for language acquisition when integrated effectively into the classroom.

Keywords: cultural competence through poetry, vocabulary expansion, communicative skills, expressive abilities.

Language acquisition has traditionally relied on structured, formal approaches, such as grammar exercises, vocabulary drills, and immersive communication practices. However, integrating creative expressions like poetry into language learning can offer unique benefits that complement these methods. Poetry, with its rhythm, imagery, and emotional depth, provides opportunities for learners to engage with language in ways that transcend rote memorization. In this article, the role of poetry in language acquisition (LA) will be analyzed, examining how it enhances linguistic, cognitive, and cultural competencies in learners.

+ Linguistic Benefits of Poetry in LA

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

Poetry presents a unique linguistic structure that can challenge and enrich language learners. Its condensed nature requires learners to focus closely on word choice, sentence construction, and grammar. Through the analysis and creation of poetry, learners engage with language at a deeper syntactic level, making it an effective tool for teaching vocabulary and grammar.

Syntax and Grammar: The unconventional sentence structures and word order found in poetry encourage learners to think about the flexibility of language. As poetry often deviates from typical grammar rules, learners are prompted to re-evaluate their understanding of syntax, promoting greater grammatical awareness and adaptability.

Vocabulary Expansion: Poetry's use of vivid, figurative language offers learners exposure to a rich array of vocabulary, including less commonly used words and expressions. By analyzing metaphors, similes, and other literary devices, students can learn to interpret complex meanings and expand their lexical repertoire.

Pronunciation and Rhythm: The rhythmic and phonetic qualities of poetry, including meter, rhyme, and alliteration, provide natural exercises in pronunciation. Learners can benefit from reading poetry aloud, which helps develop their articulation, intonation, and overall phonetic awareness in the target language.

✚ ***Cognitive Benefits of Poetry in SLA***

Poetry is not merely a linguistic exercise but also a cognitive one. The interpretative nature of poetry encourages higher-order thinking and problem-solving skills, both of which are essential in mastering a second language.

Critical Thinking. Interpreting poetic texts requires learners to think critically, as meaning in poetry is often implied rather than explicit. Learners must draw on contextual clues, metaphorical language, and personal reflection to grasp the poet's intentions. This process sharpens cognitive abilities, such as inference and deduction, which are transferable to other areas of language learning.

Memory and Retention. The musicality and emotional resonance of poetry can make it easier for learners to memorize new vocabulary and sentence structures. The combination of rhyme, repetition, and imagery found in poetry serves as mnemonic devices that aid long-term retention of language elements.

Creativity and Expression. Engaging with poetry stimulates creativity, allowing learners to express themselves in ways that may not be possible through more formal language exercises. The freedom to experiment with language in poetic form fosters

an environment where learners can take risks, make mistakes, and refine their language use without fear of rigid correction.

✚ Cultural Competence through Poetry

Poetry is deeply rooted in cultural contexts, making it a valuable tool for developing cultural competence in language learners. Through poetry, learners can gain insight into the history, values, and emotions of the people who speak the target language, which enhances their understanding of cultural varieties.

Cultural Immersion. Poetry often reflects the cultural and historical backgrounds of the people who produce it. By studying the poetry of a target language, learners can immerse themselves in the cultural narratives, traditions, and values embedded in the text. This cultural immersion fosters empathy and a deeper understanding of the societal context in which the language is spoken.

Intercultural Dialogue. Engaging with poetry from different cultures encourages learners to reflect on their own cultural experiences while comparing them to those depicted in the poetry. This comparison can promote intercultural dialogue, encouraging learners to develop a more global perspective and greater respect for cultural diversity.

Emotional Connection. Poetry often deals with universal themes, love, loss, joy, and identity that transcend cultural boundaries. By relating to these themes, learners can form emotional connections to the language and its speakers, thereby increasing their motivation to learn. This emotional engagement can also make language learning a more fulfilling and personally relevant experience.

✚ Practical Applications of Poetry in LA

While the theoretical benefits of poetry in language acquisition are clear, its practical application in the classroom is equally important. Teachers can utilize various strategies to incorporate poetry into language lessons effectively.

Poetry Reading and Analysis. Instructing students to read and analyze poetry allows them to engage with complex sentence structures, vocabulary, and cultural references. By discussing the meanings of poems, students practice both their interpretive and communicative skills.

Poetry Writing. Encouraging learners to write their own poems in the target language can enhance their creative language use. Writing poems enables students to experiment with new vocabulary and sentence structures in a less restrictive context, while also developing their expressive abilities.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

Collaborative Poetry Projects. Group poetry projects can be an excellent way to foster collaboration and peer learning. Working together on a shared poem allows students to negotiate meaning, offer feedback, and learn from each other's language use, thereby reinforcing their communicative skills.

While poetry offers numerous advantages, there are challenges to its integration in language classrooms. Poetry can be intimidating for some learners due to its abstract nature, and its dense language may be difficult for beginners to understand. Teachers need to carefully select poems that match the proficiency level of their students, gradually increasing the complexity as learners become more comfortable with poetic forms. Additionally, the interpretive nature of poetry may not align with traditional language assessment methods. Educators will need to develop alternative forms of assessment, such as creative projects or oral presentations, that allow students to demonstrate their understanding of poetic language in ways that standardized tests may not capture.

In conclusion, the role of poetry in second language acquisition is multifaceted, offering linguistic, cognitive, and cultural benefits that complement traditional language learning techniques. By engaging with poetry, learners are exposed to rich linguistic structures, encouraged to think critically, and provided with opportunities to connect emotionally and culturally with the target language. While there are challenges in incorporating poetry into the classroom, the rewards far outweigh the difficulties. When used thoughtfully, poetry can be a powerful tool in helping learners not only acquire a new language but also develop a deeper appreciation for the culture and creativity behind it.

REFERENCES:

1. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=v16ro8AAAAJ&citation_for_view=v16ro8AAAAJ:2osOgNQ5qMEC
2. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=v16ro8AAAAJ&citation_for_view=v16ro8AAAAJ:d1gkVwhDpl0C
3. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=v16ro8AAAAJ&citation_for_view=v16ro8AAAAJ:qjMakFHDy7sC
4. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=v16ro8AAAAJ&citation_for_view=v16ro8AAAAJ:IjCSPb-OGe4C

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

ГЕЛМЕНТОЗЛАРНИ БОЛАЛАР ОРАСИДА ТАРҚАЛИШНИ БАҲОЛАШ

**Султонов Равшан Комилжонович,
Одилжонов Озодбек Одилжонович**

Термиз иқтисодиёт ва сервис университетети

Тиббиёт кафедраси дотценти, PhD

Тиббиёт факултети Даволаш иши

23-16 гуруҳ талабаси

email: odiljonnorkulov0@gmail.com

Muguz parda - tiniq boʻlib, soat oynasiga oʻxshash koʻrinishga ega. Uning diametri 12 mm ni qalinligi 1mm ni tashkil qiladi.


Sklera - pishiq tolali biriktiruvchi toʻqimadan iborat boʻlib, sklera bilan muguz parda chegarasida vena qoni bilan toʻlgan tor aylanma kanal skleradagi venoz boʻshliq (shlem kanali) bor.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь



Oʻrta koʻz olmasining qon tomirli pardasi u pigmentga boy boʻlib, u bevosita skleraning ostida joylashib, koʻruv nervi chiqadigan sohada unga birikib ketadi. Bu parda uch qismdan: xususiy qon tomirli parda, kiprikli tana va rangdor pardadan iborat.

Rangdor parda - koʻz olmasining qon tomirli pardasini oldingi qismi boʻlib uning qalinligi 0,4 mm ni tashkil etadi.

Inson koʻzi oʻziga xos optik asbob boʻlib, u optikada alohida oʻringa ega.

Koʻz kosasi uncha katta boʻlmagan shar shaklida boʻladi.

Yangi tugʻilgan chaqaloq koʻz olmasining boʻylama oʻlchami 17.5mm, koʻndalang oʻlchami 16.7mm boʻlsa, katta odamlarda bu oʻlcham:

Old-orqa oʻlchami oʻrtacha 24,3 mm, vertikal oʻlchami 23,4mm , gorizantal oʻlchovi 23,6mm ni tashkil qiladi.

Koʻz gavharining ikki tomonlama diametri 8-10mm boʻlgan qavariq linzadir, oldingi egrilik radiusi 10mm, orqasining egrilik radiusi 6mm, sindirish koʻrsatkichi 1,4 dan kattaroq boʻladi.

Shuningdek toʻr parda bir necha qatlamlardan iborat boʻlib, qatlamlarning qalinligi va yorugʻlikka sezgirligi turlicha. Ularning yorugʻlikni sezuvchi xoʻjayralari bor.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

Ularning cho'zinchoq uchlari tayoqchalar, konussimon uchlari kolbachalar deb ataladi

Ko'z o'lchamlari hayot davomida 50% o'ssadi uning og'irligi 5 yoshda 70%, 20-25 yoshda 3 marta kattalashadi.

Ko'z suyuqligini sindirish ko'rsatkichi 1,33 ga

Shox pardaning sindirish ko'rsatkichi 1,38 ha

Ko'z gavharining sindirish ko'rsatkichi o'rtacha 1,48 ga teng.

Ko'zga tushadigan nurlar eng ko'p shox parda sirtida sinadi.

Ko'rish tizimiga tushgan yorug'lik elektr impulsiga aylanadi va u ko'rish nervlari orqali miyadagi markaziy nerv tizimiga yetkaziladi. Fotoreseptorlar sezgirligi juda yuqori bo'lib, unga tushgan kuchsiz yorug'likni ham elektr impulsiga aylantirib bera oladi. Yorug'lik ta'sirida reseptor hujayralarida ba'zi bir malum biokimyoviy reaksiyalarni hosil qiladi va buning oqibatida harakat potentsiali yuzaga keladi. Ko'z elektromagnit to'lqinni qabul qilibgina qolmay balki ularni farqlay olish hususiyatiga ham ega, hamda buyum tasvirini, uning rangini va qanday masofada joylashganini ham aniqlaydi. Ba'zi bir umurtqali hayvonlar ham odamlar kabi ranglarni ajrata oladilar.

Masalan: otlar, qo'ylar va cho'chqalar faqat qizil va zangori ranglarni farqlay olishadi. Tunda ov qiluvchi hayvonlar masalan: mushuklar, bo'rilar ranglarni farqlashmaydi.

Shuningdek hayvonlar ultrabinafsha va infraqizil nurlarni farqlay olmaydilar. Buning sababi esa quyoshdan yerga amalda 290 nm dan kichik to'lqinlar yetib kelmasligidir. Shu sababdan ham insonlarda hamda hayvonlarda bu to'lqin uzunlikni sezuvchi organlar rivojlanmagan.

Shuningdek bundan ancha katta bo'lgan to'lqin uzunlikli ultrabinafsha nurlarni ham ko'z sezmaydi. Buning sabab yuqori energiyali ultrabinafsha nurlarining

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

ko'zdagi yorug'likka sezgir pigmentlarni buzishidir. Shu sababli gavhar va shishasimon suyuqlik nafaqat UB nurlarni balki to'lqin uzunligi 400 nmga yaqin bo'lgan ba'zi nurlarni ham kuchli yutadi. Agar bu nurlarning energiyasi katta bo'lsa to'r pardani kuydiradi. IK nurlarni misol qilib keltiradigan bo'lsak, bu nurlarni hayvonlar tanasining o'zi ham chiqaradi. 37°C da maksimal nurlanish 9÷10 mkm to'lqin uzunlikka mos keladi. 1 sm² hayvon tanasi 50 mVt quvvatli energiyani nurlashi mumkin. Bu esa ko'zga quyoshdan tushadigan energiyadan ancha katta hisoblanadi. Ammo shuni ham takidlashimiz darkorki ko'z qo'rish sohasidan boshqa to'lqinlarni ham sezadi.

Masalan: inson 300 nmli ultrabinafsha hamda 950 nmli infraqizil nurlarni ham sezadi. Umurtqali hayvonlar uchun ko'rish spektri insonlarning yaqin fotoreseptor hujayralaridan keladigan informasiyani bir bitga teng deb hisoblasak bir sekundda nerv tolasi orqali miyaga boradigan impulslar axboroti $3 \cdot 10^8$ bitga teng bo'ladi. Agar buni taqqoslaydigan bo'lsak, televizion kanal 1 sekundda 10^2 bit axborot beradi, bu esa insonning nerv tolasi orqali miyaga boradigan impuls axborotidan 30 marta kam. Bu taxminiy o'rtacha hisoblardir. Amalda bu hisoblar bir necha barobar katta bo'lishi ham mumkin.

Inson ko'zi tirik organizmlar ichida eng mukammal tizim hisoblanib, unda fotoretseptor to'qimalarining sezgirligi ham juda kuchli rivojlangan. Jonivorlar bilan taqqoslaydigan bo'lsak, chuvalchanglarda ko'rish faqat yorug'lik va qorong'ulikni farqlashdan iborat bo'lib, chuvalchanglarda fokuslovchi qism mavjud emas. Malyuskalarda chuqurcha mavjud bo'lib, u yorug'likning tushish yo'nalishini aniqlash vazifasini bajaradi. Chayonlarda esa ko'rish ancha rivojlangan bo'lib, ularda fokuslovchi linza ham mavjud. Yana shuni ham takidlashimiz kerakki tayoqchalar ham turli xil hayvonlarda turlicha.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

Masalan: chumolida tayoqchalari 100 ta bo'lsa, ninachida esa ular 28 mingtaga yetadi, lekin bularda ajrata olish qobiliyati kichik. Sochish burchagi esa $1-8^{\circ}\text{C}$ atrofida bo'ladi.

Tayoqchalar — ko'proq yorug'likka sezgir bo'lib, ular kam yorug'likda (masalan, qorong'ida) ishlaydi. Ammo ular ranglarni farqlamaydi, shu sababli tayoqchalar yordamida ko'rilgan tasvir faqat qoramtir tusalarda bo'ladi. Kolbachalar esa yorug'lik kuchli bo'lgan sharoitlarda ishlaydi hamda ranglarni farqlash imkonini beradi. Kolbachalar qizil, yashil va ko'k ranglarni ajrata oladigan uch xil guruhga bo'linadi, va bu guruhlar birgalikda rangli ko'rishni ta'minlaydi. Tayoqchalarni sezgirligi kolbachalarnikidan kattadir.

Tayoqchalar 10^6 Ik da ko'rish imkonini berasa, kolbachalar 10^2 Ik da rangni ajrata olish imkonini beradi. Ko'zga kesimi 4 mm^2 bo'lgan ko'rish nervi keladi va u million nerv tolalariga bo'linadi.

Inson ko'zida 10 ta qatlam mavjud bo'lib, oxirgisi fotoreseptor to'qima engdir. Fotoreseptor yorug'lik energiyasini, elektr energiyasiga aylantiradi va uning kuchaytirish koeffitsiyenti $10^5 - 10^6$ ga teng. U 3-4 foton tushganda ham ishlaydigan qurilmadir. Inson ko'zining to'r qatlamida 130 million tayoqchalar va 7 million kolbachalar joylashgan. Yorug'likning asosiy sinishi muguz pardaning tashqi chegarasida yuz beradi. Uning optik kuchi 40 dioptriyaning tashkil qilsa, gavharning optik kuchi 20 dioptriyaning tashkil etadi. Ko'z turli uzoqlikdagi jismlarni bir xil ravshanlikda ko'rish kerak. Buning uchun ko'z gavhari egriligi o'zgaradi. Bunga akkomadasiya yani "keskinlikka to'g'rilanish" deyiladi, buyum yoki jism cheksizlikda bo'lsa uning optik kuchi nolgacha kamayadi. Jism yaqinlashsa, gavhar radiusi kattalashadi. Zo'riqishsiz eng yaxshi ko'rish masofasi 25 smdir. Buning sababi esa quyoshdan yerga amalda 290 nmdan kichik to'lqinlar yetib kelmasligidir. Shu sababdan ham insonlarda hamda hayvonlarda bu to'lqin uzunlikni sezuvchi

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

organlar rivojlanmagan. Tayoqchanning xarakterli tashkil etuvchisi tashqi segmentlar xisoblanadi (TS). Insonlarda ularning uzunligi 20- 30 mkm, qalinligi 2 mkm bo'lsa, tayoqchanning umumiy uzunligi 50-60 mkm bo'ladi.

Akkomodatsiya — bu ko'z gavharining shaklini o'zgartirish orqali yaqin va uzoq masofadagi obyektlarni fokuslay olish qobiliyatidir. Ko'z gavhari elastikligi sababli, yaqin obyektlarni ko'rishda gavhar qavariq bo'lib, kuchliroq sinadi; uzoq obyektlarni ko'rishda esa yassi bo'lib, sinish quvvati kamayadi. Akkomodatsiya jarayonida ko'z mushaklari, ayniqsa silindrik mushaklar muhim rol o'ynaydi.

TS ning butun sitoplazmasi maxsus organoidlar (disklar) bilan to'lgan, har bir tayoqchanning TS da 700 tadan 1000 tagacha disk mavjud bo'lib, ular bir- birining ustiga joylashtirilgan tashqi segment disk membranalar bilan to'ldirilgan bo'ladi. Ushbu disk membranalar fotoreseptor membranalar deb atashaladi, buning sababi bu membranalarda yorug'likning birlamchi sezish jarayoni boshlanadi. Ko'z gavharining fokus masofasini kuzatilayotgan buyumgacha bo'lgan masofaga moslashish qobiliyatiga akkomodatsiya deyiladi. Ammo ko'z akkomodatsiyasining ma'lum bir chegarasi bo'ladi: biz juda yaqin turgan buyumlarni aniq ko'ra olmaymiz, buning sababi esa ko'zning to'r pardasida mazkur buyumlarning aniq tasviri hosil bo'lmasligidir.


Masalan: O nuqta ko'zning optik markazi bo'lsa, To'r pardada AB^1 buyumning $A'B^1$ tasvirini yasasak, bunda ko'rish burchagi α^1 bo'lsa. Buyum uzoqlashtirilganda ham ($A'B^2$ buyum), ko'z akkomodatsiyasi tufayli uning tasviri to'r pardada qoladi, lekin bu tasvir kichraygan bo'ladi ($A'B^2 < A'B^1$). Shuningdek, ko'rish burchagi (α^2) ham kichrayadi.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь



Agar buyum ko'zdan juda uzoqlashtirilsa, ko'rish burchagi ham juda kichik bo'lib qoladi. Bu vaqtda A va B nuqtalar bir-biriga shunchalik yaqinlashib ko'rinadiki, natijada biz buyumning nuqtalarini ajrata olmay qolamiz. Ikki nuqta bir-biriga qo'shilib, bir nuqtaga aylanib ketmasligi uchun shu nuqtalarning ko'rish burchagi bir minutdan kichkina bo'lmashligi kerak.

Ko'rish burchagi qanchalik katta bo'lsa, buyumning tasviri ham shunchalik aniq ko'rinadi. Buyumni ko'rish uchun eng qulay bo'lgan masofa "Eng yaxshi ko'rish masofasi" deyiladi. Ko'zdan shu masofada turadigan nuqtaga esa "Akkomadasiyaning eng yaqin nuqtasi" deb nomlanadi. Normal ko'z akkomadasiyasining eng uzoq nuqtasi cheksiz uzoqlashgan nuqta deyiladi, bu nuqta ko'zning zo'riqmagan holatiga to'g'ri keladi. Ko'zning optik xususiyatlari deganda, ko'zning yorug'likni qabul qilishi va fokuslashi orqali ko'rishni ta'minlash qobiliyatiga aytiladi. Ko'zning optik sistemasi bu insonlarning (yoki umurtqali hayvonlarning) ko'zlari evolyutsiya jarayonida taqsimlangan biologik sistema sifatida, bionika doirasida optik sistemalarni loyihalash va yaxshilashga aloqador optik sistemalarni yaxshilashga doir bir necha xil g'oyalarni vujudga keltirish orqali ta'riflanadi.

Ko'zning optik xususiyatlari yorug'likni sinishimi, fokuslanishni va tasvirning aniq shakllanishini ta'minlab beradi. Agar bu jarayonlar noto'g'ri ishlashi, miyopiya (yaqinni ko'ra olish) yoki gipermetropiya (uzoqni ko'ra olish) kabi ko'rish

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

nuqsonlarini yuzaga kelishiga olib keladi. Shox parda sirtida ko'zga tushadigan nurlar eng ko'p sinadi. Ko'z gavhari ham nurni qo'shimcha ravishda biroz sindiradi. Biz ko'z bilan ko'rayotgan jismning tasviri to'r pardada joylashgan bo'lib u haqiqiy, kichiklashgan va teskari tasvir bo'ladi. Biz miyamizning korektlash ta'siri ostida buyumning joylashishi to'g'risidagi to'g'ri taassurotni olamiz. Ko'z bajaradigan funksiyasiga ko'ra ikki qismga bo'linadi bular: ko'zning optik sistemasi hamda retseptor qismi.

Ko'zning optik sistemasi ham o'z o'rnida to'rt qismga bo'linadi, ular:

-ko'zning shox pardasi,

-ko'z ichki suyuqligi,

-gavxar,

-shishasimon tana.

Ular ko'zga tushadigan yorug'lik nurini sindirib o'tkazadi va uni ko'zning ichki to'r pardasida joylashgan retseptorlarga to'plab berish vazifasini bajaradi. Ko'z gavxari yorug'lik nurini sindirib o'tkazishda muhim o'rin tutadi. Ko'zning optik xususiyatlaridan yana ba'zilar quyidagilar hisoblanadi:

Ko'rish keskinligi – bu ko'zning obyektlarning kichik detallarini ham ajrata olish qobiliyatidir.

Ko'zning kontrast sezgirligi - Bu ko'zning fon bilan obyekt orasidagi kontrast farqlarini sezish qobiliyati hisoblanadi. Ko'zning kontrast sezgirligi yorug'lik sharoitiga qarab o'zgaradi. Masalan: ko'z qorong'ida kontrastni ko'proq sezsa, kuchli yorug'likda kontrast sezgirligi kamayadi.

Ko'zning dinamik ko'rish qobiliyati- bu ko'zning harakatdagi obyektlarni kuzatib, ularni aniq ko'rish qobiliyati hisoblanadi. Bu ayniqsa sportchilar yoki tez harakatlanuvchi mashina haydovchilari uchun muhimdir. Dinamik ko'rish

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

jarayonida koʻz mushaklari va miya yaxshi muvofiqlashtiriladi, bu esa obyektни kuzatishda muhim ahamiyatga ega.

Koʻzning infraqizil va ultrabinafsha nurlarni sezmasligi - Koʻz odatda 400 nm dan 700 nm gacha boʻlgan yorugʻlik toʻlqinlarini qabul qiladi. Bu spektrda koʻz ranglarni yaxshi ajratadi. Ammo infraqizil (700 nm dan ortiq) va ultrabinafsha (400 nm dan kam) toʻlqinlar koʻz tomonidan sezilmaydi, chunki bu nurlar koʻzning fotoreseptorlari tomonidan qabul qilinmaydi. Koʻrish maydoni – inson koʻzi bilan koʻrish mumkin boʻlgan hududning kengligidir. Koʻzning bunday optik xususiyatlari uni mukammal biologik kamera sifatida ishlashiga imkon beradi.

Koʻzning optik sistemasida baʼzi kamchiliklar boʻlib bular, Akkomodatsiya yoʻqligida normal koʻzning orqa fokusi toʻr pardaga toʻgʻri keladi, bu kabi koʻzlarga "emmetropik" koʻz deyiladi va bu shart bajarilmaydigan hollarda "ametropik" koʻz deyiladi. Ametropiyaning eng koʻp tarqalgan koʻrinishlaridab bir yaqindan koʻrish miopiya va uzoqdan koʻrish gipermetropiya deyiladi.

Miopiya deb yaqindan koʻrish nuqsoniga aytiladi bunda yaqindagi narsalar yaxshi, uzoqdagilar esa xira koʻrinadi. Miopiyaga homiladorlik davrida onaning turli infeksiyon kasalliklar (gripp va h.k lar), anemiya bilan ogʻrishi, yotib oʻqishga odatlanish, qorongʻida yoki engashib uzoq vaqt koʻzga dam bermay oʻqishi kabi holatlar sabab boʻladi.

Miopiyaning uchta darajasi bor va ular quyidagilar:

-yengil — 3,0 D gacha,

-oʻrta — 3,0 D dan 6,0 D gacha

-kuchli — 6,0 D dan yuqori.

Miopiya koʻz pardalarini (oqsil, tomirli, toʻr parda) hamda muskullarini toliqtiradi. Ular choʻzilib, koʻzning optik oʻqi uzunlashishi, natijada miopiya zoʻrayadi, bu koʻzning koʻrish qobiliyatini pasaytiradi. Miopiyaning oldini olish


МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444


Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

uchun ko'z gigiyenasiga amal qilish, ko'zni toliqtirmaslik, uzoq vaqt engashib turmaslik, boshni birdan qattiq egib yubormaslik talab qilinadi. Kuchli darajadagi miopiyada vrach qabuliga borish zarur.



Gipermetropiya - uzoqdan ko'rish, ko'zda nur sindirish (refraksiya) me'yoring buzilishi.

Ko'zning nur sindirish xususiyati 3 turli bo'ladi. Birinchisida ko'zga tushgan nurlar to'r pardada sinib, ko'z narsalarni yaxshi, normal ko'radi. Ikkinchisida nurlar fokusi kalta bo'lib, ular to'r pardaga bormay, ko'zning ichida sinib, o'z fokusida yig'iladi. Bunda ko'zning ko'rish xususiyati faqat yaqinga yetadi, bu yaqindan ko'rish (miopiya) deyiladi.



Uchinchisida esa ko'zga tashqi muhitdan tushgan nurlar to'r pardadan ko'zning orqasiga ya'ni „manfiy masofa“ga o'tib ketadi. Bu kasallik bilan og'rikan bemorlar ko'zi uzoqdan ham, yaqindan ham yaxshi ko'rmaydi, chunki nurlar fokusi uzoqda yotadi, ko'z to'r pardasiga faqat ayrim nurlar tushadi ammo u tashqi muhitdagi buyumlar shaklini to'liq aks ettira olmaydi.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

Koʻzning nur sindirish xususiyati dioptriya bilan hisoblanib yosh odamlarda gipermetropiya refraksiyasi ikki yoki koʻpi bilan uch darajagacha boʻlsa, uni akkomodatsiya qoplay oladi va odam 40—50 % gacha koʻrishi mumkin boʻladi.

Ammo bunday odamlarning koʻzi tez charchab, qizarib koʻzlari hamda qovogʻida ogʻriq sezib, bosh ogʻrigʻidan bezovta boʻlishadi. 40 yoshdan oshgan insonlarda akkomodativ apparat yoshlarniki kabi yumshoq va harakatchan boʻlmaganligi tufayli akkomodatsiya kuchi kamayadi. Ular harflarni yaqindan oʻqiy olishmaydi. Gipermetropiya bolalarda gʻilaylikka olib kelishi ham mumkin. Bunday vaziyatda uzoqdan koʻruvchi insonlarga qavariq koʻzli koʻzoynak taqish tavsiya etiladi.

Xulosa: Ushbu maqolada biz koʻzning murakkab optik xususiyatlari va koʻrish jarayonining asosiy mexanizmlari oʻrganishimiz mumkin. Koʻzning gavhari, muguz pardasi va fotoretseptorlari kabi muhim komponentlarining funksiyalari tahlil qilinib, miopiya va gipermetropiya kabi koʻrish nuqsonlarining sabablari va ularni oldini olish usullari bilan tanishishimiz mumkin. Koʻzning optik tizimi inson koʻrish qobiliyatining asosidir, va uning ishlash mexanizmlarini chuqur tushunish koʻrish bilan bogʻliq kasalliklarni davolash va oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Biofizika" oʻquv darsligi E. Ismailov Toshkent 2012
2. "Biofizika" oʻquv darsligi Rezimov A.N 2005.
3. "Anatomiya" 2-jild oʻquv darsligi Ahmedov 2018.
4. "Koʻz kasalliklari" Zolotareva 1982.
5. "Hammabop tibbot qoʻllanmasi" David Verner
6. "Normal Fiziologiya" oʻquv darsligi SH.Q.Qodirov 2007.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

Foydalanilgan internet saytlari:

<https://uz.wikipedia.org>

<https://www.hozir.org>

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

TIJORAT BANK BIZNESINI INNOVATSION G'OYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Qorjovov Faxriddin

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti buxgalteriya hisobi va audit
yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqola innovatsion g'oyalar asosida tijorat banking rivojlanishini o'rganadi. So'nggi yillarda texnologik taraqqiyot va iste'molchilarning kelajakdagi o'zgarishlari an'anaviy banklarni o'z biznes modellarini qayta ko'rib chiqishga majbur qilmoqda. Ushbu maqola raqamli bank platformalari, fintech hamkorliklari, blokcheyn texnologiyasi, sun'iy intellekt (AI) va ma'lumotlar tahlili kabi innovatsiyalar operatsion samaradorlikni oshirish, mijozlar tajribasini oshirish va biznes o'sishiga qanday hissa qo'shishini o'rganadi. Tahlil banklar innovatsiyalarni integratsiya qilish uchun foydalanadigan asosiy strategiyalarni va moliyaviy natijalar va mijozlarni jalb qilish bo'yicha ushbu strategiyalarning natijalarini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar. Tijorat banki, innovatsiyalar, fintech, blokcheyn, sun'iy intellekt, raqamli banking, mijozlar tajribasi, operatsion samaradorlik.

Abstract

This article investigates the development of commercial banking driven by innovative ideas. In recent years, technological advances and shifts in consumer expectations have forced traditional banks to rethink their business models. This paper examines how innovations such as digital banking platforms, fintech partnerships, blockchain technology, artificial intelligence (AI), and data analytics contribute to improving operational efficiency, enhancing customer experience, and driving business growth. The analysis highlights key strategies banks use to integrate innovations and the results of these strategies on financial performance and customer engagement.

Key words. Commercial banking, innovation, fintech, blockchain, artificial intelligence, digital banking, customer experience, operational efficiency.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

KIRISH

Moliyaviy xizmatlar sanoati, xususan, tijorat banklari innovatsion texnologiyalar asosidagi paradigma o'zgarishiga duch kelmoqda. Raqamli platformalarning integratsiyasi, fintech firmalarining yuksalishi va AI, blokcheyn va ma'lumotlar tahlilidagi yutuqlar an'anaviy bank modellarini qayta shakllantirmoqda. Ushbu innovatsiyalar nafaqat operatsion samaradorlikni oshirish, balki mijozlar tajribasini oshirish, yangi daromad oqimlarini ochish va moliyaviy inklyuziyani rivojlantirishga yordam beradi. Raqobat kuchayib borar ekan, banklar raqobatbardosh ustunlikni saqlab qolish va rivojlanayotgan mijozlar talablarini qondirish uchun innovatsiyalarni qabul qilishda davom etishlari kerak. Ushbu maqola innovatsion g'oyalarning tijorat banki biznesining rivojlanishiga ta'sirini tahlil qilish, bank ishi kelajagini shakllantiruvchi rivojlanayotgan tendentsiyalar va strategiyalar haqida tushuncha berishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu maqolada innovatsion g'oyalarni o'z biznes modellariga muvaffaqiyatli integratsiyalashgan banklarning amaliy tadqiqotlarini tahlil qilishda sifatli yondashuv qo'llaniladi. Birlamchi ma'lumotlar soha mutaxassislari va bank rahbarlari bilan suhbatlar orqali to'planadi, ikkinchi darajali ma'lumotlar esa sanoat hisobotlari, jurnal maqolalari va moliya institutlarining rasmiy nashrlaridan olinadi. Tadqiqot raqamli bank platformalari, sun'iy intellekt, blokcheyn va fintech hamkorlik kabi maxsus innovatsiyalarning biznes samaradorligi, mijozlar tajribasi va operatsion samaradorlikka ta'sirini baholashga qaratilgan. Innovatsion strategiyalar samaradorligini baholash uchun mijozlar qoniqish ko'rsatkichlari, xarajatlarning daromadga nisbati va yangi xizmatlardan tushgan daromadning o'sishi kabi asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) tahlil qilinadi.

Ko'plab tadqiqotlar bank sektorini innovatsiyalar orqali o'zgartirishni o'rganib chiqdi. PwC (2021) hisobotiga ko'ra, banklarning 70% dan ortig'i hozirda o'sishning asosiy omili sifatida raqamli transformatsiyaga ustuvor ahamiyat qaratmoqda. Hisobot banklar va fintech firmalari o'rtasidagi hamkorlikning kuchayib borayotganini ta'kidlaydi, bu esa an'anaviy institutlarga me'yoriy hujjatlarga rioya qilgan holda yangi texnologiyalardan foydalanish imkonini beradi.

Deloitte (2020) tomonidan o'tkazilgan yana bir tadqiqotda AI va ma'lumotlar tahlilining mijozlar segmentatsiyasi, xavflarni boshqarish va firibgarlikni aniqlashdagi roli ta'kidlangan. Sun'iy intellektga asoslangan chatbotlar va

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

moslashtirilgan bank xizmatlari mijozlarning o'zaro munosabatlarini o'zgartirib, qoniqish va sodiqlikni oshiradi.

Tapkott (2016) tomonidan ta'kidlanganidek, blokcheyn texnologiyasi banklarga transchegaraviy to'lovlar, savdoni moliyalashtirish va identifikatsiyani tekshirish kabi murakkab jarayonlarni soddalashtirish potensialini taklif qiluvchi yana bir yirik yangilikni taqdim etdi. Bu tranzaksiya xarajatlari va hisob-kitob vaqtlarini qisqartirish bilan birga xavfsizlik va shaffoflikni yaxshilaydi.

Biroq, ushbu innovatsiyalarning aniq afzalliklariga qaramay, ba'zi tadqiqotlar amalga oshirishdagi qiyinchiliklarga ishora qiladi. O'zgarishlarga qarshilik, kiberxavfsizlik tahdidlari va tartibga soluvchi to'siqlar ko'pincha bank sohasida innovatsiyalar uchun to'siqlar sifatida tilga olinadi (Accenture, 2019). Shu bois adabiyotlarda banklarning yangi texnologiyalarni integratsiyalashuviga strategik yondashuvni qo'llash, mijozlar talablari va tartibga soluvchi talablar bilan to'g'ri muvofiqlashtirishni ta'minlash zarurligi ta'kidlanadi.

NATIJARLAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, innovatsion texnologiyalarni integratsiyalashgan banklar bir qancha sohalarda sezilarli yaxshilanishlarga erishgan. Masalan, raqamli platformalar va mobil banking ilovalarini o'zlashtirgan banklar ikki yil ichida mijozlarni jalb qilish darajasi 25-30 % ga oshgan. Raqamli bankingga o'tish jismoniy filiallar bilan bog'liq operatsion xarajatlarni ham qisqartirdi, bu esa xarajatlar va daromad nisbatining o'rtacha 15% ga yaxshilanishiga olib keldi.

Sun'iy intellektga asoslangan yechimlar chatbotlar orqali real vaqt rejimida yordam ko'rsatish orqali mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshiladi, bu esa javob vaqtini qisqartirdi va mijozlar ehtiyojini qondirish darajasini oshiradi. Xatarlarni boshqarish nuqtai nazaridan, sun'iy intellektga asoslangan bashoratli modellar kredit tavakkalchiligini aniqroq baholash imkonini berdi va o'rganilayotgan banklar bo'yicha muammoli kreditlarni o'rtacha 10% ga qisqartirdi.

Blokcheynni qabul qilish, ayniqsa, transchegaraviy tranzaksiyalar uchun foydali ekanligini isbotladi, ba'zi banklar ishlov berish vaqtini 40 foizga qisqartirish va tranzaksiya xarajatlarni 20 foizga qisqartirish haqida xabar berishdi. Bundan tashqari, fintech hamkorliklari banklarga raqamli hamyonlar, peer-to-peer kreditlash platformalari va robo-maslahatchilar kabi innovatsion mahsulotlarni taklif qilish imkonini berdi, bu esa yangi daromad oqimlarini keltirib chiqardi.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

Biroq, qiyinchiliklar saqlanib qolmoqda. Banklar hali ham tartibga solish va kiberxavfsizlik muammolari tufayli AI va blokcheynni to'liq integratsiya qilishda to'siqlarga duch kelishmoqda. Ko'pgina hollarda, ushbu texnologiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish tashkilot ichida sezilarli madaniy o'zgarishlarni talab qildi, bunda yetakchilikni sotib olish va xodimlarni qayta tayyorlash muvaffaqiyat uchun muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Tijorat banking rivojlanishi tobora ko'proq innovatsion g'oyalarni qabul qilishga bog'liq. Moliyaviy xizmatlar landshafti rivojlanib borar ekan, raqamli transformatsiyani qabul qiladigan, fintech firmalari bilan hamkorlik qiladigan va sun'iy intellekt va blokcheyn kabi ilg'or texnologiyalarni tatbiq etuvchi banklar ko'proq muvaffaqiyat qozonadi. Ushbu innovatsiyalar nafaqat operatsion samaradorlikni oshiribgina qolmay, balki mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni qayta shakllantiradi va yangi biznes imkoniyatlarini yaratadi. Biroq, o'tish strategik yondashuvni talab qiladi, banklar kiberxavfsizlik, tartibga rioya qilish va tashkiliy o'zgarishlar bilan bog'liq muammolarni hal qiladi. Raqobatbardoshlikni saqlab qolish uchun tijorat banklari innovatsiyalarga sarmoya kiritishda davom etishi va tez o'zgaruvchan moliyaviy ekotizimga moslashishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Accenture. (2019). Innovation in banking: Overcoming barriers to adoption. Accenture Research.
2. Deloitte. (2020). AI in banking: Transforming customer service and operations. Deloitte Insights.
3. PwC. (2021). Digital banking transformation: The future of financial services. PwC Global Banking Report.
4. Tapscott, D., & Tapscott, A. (2016). Blockchain revolution: How the technology behind bitcoin is changing money, business, and the world. Penguin.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

**OTQULOQ O'SIMLIGINING DORIVOR XUSUSIYATLARI VA
UNDAN OQILONA FOYDALANISH**

To'ychiyev H.H., Eshkaraev S.Ch.

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Termiz sh, Farovon massivi
43B-uy, e-mail: esadir_74@rambler.ru*

Annotatsiya. Maqolada otquloq o'simligining o'ziga hosligi va o'simlik kimyoviy tarkibi boyligi, shifobaxshligi, oziq-ovqat, kosmetologiya, xalq tabobati va rasmiy tibbiyotda foydalanish yo'llari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Otquloq xom ashyo, quritish, dorivor, hid, ta'm, retsept, damlama.

**MEDICINE OF OTKULOK PLANT (PUMEX OFFICINALIS)
CHARACTERISTICS AND ITS REASONABLE USE**

Tuychiyev H.H., Eshkarayev S.Ch.

*Termiz University of Economics and Service, Termiz city, Farovon massif
43B-house, e-mail: esadir_74@rambler.ru*

Abstract. The article describes the uniqueness and richness of the plant's chemical composition, medicinal properties, ways of using it in food, cosmetology, folk medicine and official medicine.

Key words: Otkulok, raw material, drying, medicinal, smell, taste, recipe, tincture.

**ЛЕЧЕБНЫЕ СВОЙСТВА РАСТЕНИЯ ОТКУЛОК (ПУМЕХ)
И ЕГО РАЗУМНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ**

Туйчиев Х.Х., Эшкараев С.Ч.

*Термезский университет экономики и сервиса, г. Термез, массив
Фараван*

43Б-дом, e-mail: esadir_74@rambler.ru

Аннотация. В статье описаны уникальность и богатство химического состава растения, лечебные свойства, способы использования его в пище, косметологии, народной и официальной медицине.

Ключевые слова: ОТКУЛОК, сырье, сушка, лекарственный, запах, вкус, рецептура, настойка.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

KIRISH

Hozirgi kunda dunyo miqyosida dorivor o'simliklar xom ashyosidan olinadigan tabiiy dori darmonlarga bo'lgan talab ortmoqda. Shunday ekan, insonlar manfaatlarini ko'zlab, har bir giyoh xususiyatlarini o'rganib, ularning plantatsiyalarini yaratish hamda ko'paytirish ulardan yuqori sifatli dorivor o'simlik xom-ashyo zaxirasini tashkil etish zarur.

Otquloq - rumex armeniaca Ten. (rumex)

O'simlik tavsifi: Otquloq (Rumex) — torondoshlar oilasiga mansub bir va ko'p yillik o'simliklar turkumi. O'zbekistonda 16 turi mavjud. Shulardan ekma. Otquloq, shovul, jingalak Otquloq (*R. crispus* L.), qizg'ish Otquloq (*R. conglomerates* Murr.), Suriya Otqulog'i (*R. syriacus* Meisn.), Drobov Otqulog'i (*R. drobovii* Korov.) uchraydi. Ildizi o'q ildiz, yo'g'on, poyasi ko'p qirrali, bo'g'imli, yuqori qismi kamshox. Ildiz oldi barglari uzun bandli, barg plastinkasining tubi o'qsimon (nayzasimon), uchburchak-tuxumsimon yoki keng nashtarsimon, poyasidagisi cho'ziq-nashtarsimon, poya bo'g'imlarida ketma-ket o'rnashgan. Gullari bir jinsli, mayda, to'pguli ro'vaksimon. May oyidan sentabrgacha gullab urug'laydi. Mevasi 3 qirrali yong'oqcha. O. nam yerlarda, o'tloqlarda, tog' yonbag'irlarida o'sadi. Tibbiyotda dorivor O., mayda bargli O. yoki shovul va oddiy Otquloqdan foydalaniladi. O. S, V va boshqa vitaminlarga boy bo'lgani sababli ovqatga ishlatiladi. Otquloq va chinor barg sathi katta o'simliklar hisoblanadi



GEOGRAFIK tarqalishi MDH davlatlarining Yevropa qismi, Sibirning janubiy qismlari, O'zbekiston, Uzoq Sharq va, qisman Kavkazda ariq bo'ylarida, uvatlarda, o'tloqlarda, o'rmon chetlarida, yo'l yoqalarida va begona o't sifatida ekinzorlarda o'sadi

KIMIYOVIY tarkibi

Bu o'simlikning kimyoviy tarkibi kremniy kislotasini o'z ichiga oladi (taxminan 25%), organik kislotalar, oqsillar (taxminan 16%), karotin (taxminan 4,7%), mis, k

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

altsiy, S vitamini (0,19%) va boshqalar. Kuzoq nordon tarkibiga makroelementlar kiradi: k altsiy, kaliy, magniy, natriy, oltingugurt, fosfor, xlor kompleksi. Mikroelementlar - temir, yod, marganets, mis, sink, fluor kompleksi. O'simlik quyidagi vitaminlarga boy: A, B1, B2, B3 / PP, B5, B9 - foliy kislotasi, C, E, K - filokinon; H - biotin.

Dorivor preparatlari. Ildiz qaynatmasi va poroshogi Dizenteriya, kolit enterokolit, va boshqa beda'ichak kasalliklarini davolash uchun qo'llaniladi . Otquloq dori preparatlari kichik dozada ich qotirish , katta dozada ich yumshatish xususiyatga ega.

ISHLATILISHI Dori-darmonlarni tayyorlash uchun o'simlikning yer usti va er osti qismlari, shuningdek, shoxlari va urug'lari ishlatiladi. Ammo eng foydali ot otquloqning ildizi bo'lib, u eng ko'p miqdorda ozuqaviy moddalarni o'z ichiga oladi. Urug'lar to'liq pishganidan keyin yig'ib olinadi.

Olinish usuli va qo'llanishi Havo qismi, urug'lari va barglari apreldan maygacha yig'ib olinadi. Er osti qismi, ildizi kuzda, barglari va poyalari qurib qolganda yoki hali shakllanmagan paytda, ya'ni erta bahorda qazib olinadi. Xom ashyo to'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlaridan qochib, qoralama ichida quritiladi, buni kanop bilan qilish yaxshidir. To'liq quritgandan so'ng ular maydalanadi va quruq shisha idishlar yoki toza kanvas qoplarga o'raladi.

TAVSIF Dorivor xususiyatlari va kontrendikatsiyasi yaxshi o'rganilgan ot otquloq karabuğday navidan. Bu kuchli, ko'p boshli va yuqori tarvaqaylab



МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

ketgan ildizpoyaga ega, uzoq va etaricha kuchli ildizga ega bo'lgan ko'p yillik o'simlik. Bu o'simlikning bir yildan ortiq yashashi va meva berishiga imkon beruvchi ildizdir. Boqqa ekilganidan keyin bu o'simlikni ko'paytirish deyarli mumkin emas.

Ot otquloqning ustki qismi o'tsimon bo'lib, juda katta muqobil barglari, pastki qismida - katta-katta, yurak shakliga ega. Yuqori qismida barglari k alta bargli, tuxumsimon-lansolatsimon shaklga ega.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Bugungi kunga kelib tabiiy xom ashyoga bo'lgan talab kun sayin ortib bormoqda, shu jumladan dorivor Otquloq o'simligiga ham ehtiyoj yetarlicha ekanligini ko'rish mumkin. O'simlik o'ziga xos xarakterli gulining xushbo'y hid va ta'mga ega ekanligi sababli oziq-ovqat (ziravor), kosmetologiya, xalq tabobati va rasmiy tibbiyotda keng dorilar tayyorlash uchun foydalanib kelinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sobirjonovna BN va boshqalar. CHAKANDA O'SIMLIGIGA ZAMONAVIY QARASHLAR //ILMIY VA TA'LIM TADQIQOTLARIDAGI INNOVATIONS JURNALI. – 2023. – T. 6. – Yo'q. 2. – 209-211-betlar.
2. Nabieva F.S., Narzullayeva MA, Bo'Riyev M.G. YUQUMLI KASALLIKLARNI TASHXISLASHDA IMMUNOFERMENT TAHLILINING AHAMIYATI //Research Focus. – 2022. – T. 1. – Yo'q. 4. – 161-164-betlar.
3. Chinorgulning xalq tabobatidagi ahamiyati A.S.Sadriddinova, A.M.G'ulomovna Yevroosiyo tibbiy tadqiqot davriy nashri, 19, 49-50
4. DENGIZ TURGANINING (Hippophae Rhamnoides L.) SHIFOBALIK XUSUSIYATLARI. Intelligence 2 (3), 1-3
5. SALVIA O'SIMLIGINING XUSUSIYATLARI. JF Alikovna, AA Shukrullayevich JURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH 6 (2), 217-218

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

6. 6.Salvia submutica o'simligining gipotenziv xususiyatlari A.M.G'ulomovna, AS Sadriddinovna Evrosiyo Tibbiyot Tadqiqotlari davriy nashri 19, 51-52
7. .Sobirjonovna BN, Kurakbaevna T.S. Bolalardagi surunkali nefritik sindromning klinik dinamikasi //Evroosiyo Tibbiyot tadqiqotlari. – 2023. – T. 19. – S. 53-56.
8. Dorivor o'simliklarning yashash joylari va resurslari atlas. – M.: GUGK, 1983. – 340 b. Istiqbolli dorivor o'simliklarning biologik xususiyatlari va tarqalishi //T.A.Adilova tahriri. – Toshkent: Fan, 1981. – 158 b.
9. Gammerman A.F., Kadaev G.N., Yantsenko-Xmelevich A.A. Dorivor o'simliklar (shifobaxsh o'simliklar). – M.: Oliy maktab, 1984. – 400 b.
- 10.Abu Ali ibn Sino (Avitsena)ning o'simlik dori vositalari. Ma'lumotnoma // Sh.B.Irgashev tahriri ostida. – Toshkent: Abu Ali ibn Sino, 2003. – 457 b.
- 11..Azizxonovna N.M., Madullaevich I.O. Dengiz itshumurtidan foydalanish va uning foydali xususiyatlari tibbiyotda //Yevrosiyo Tibbiyot tadqiqotlari davriy nashri. – 2023. – T. 19. – B. 57-59.
.Narzullaeva M. va boshqalar DOIBYOR O'SIMI DENGIZTINA VA UNING TIBBIYOTDAGI FOYDALI XUSUSIYATLARI // Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: nazariya va amaliyot. – 2023. – T. 2. – Yo'q. 9. – 68-70-betlar.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

**PARAZITLAR KELITIRIB CHIQRADIGAN KASALLIKLAR VA
ULARNING OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI.**

Abdullayeva I.B , Ro'ziyeva G.T

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Termiz sh, Farovon massivi

43B-uy, e-mail: esadir_74@rambler.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolaning maqsadi parazitlarning keng va xilma-xil dunyosi, ular keltirib chiqaradigan kasalliklar va ularning sog'liqni saqlashning kengroq sohasiga qanchalik mos kelishi bilan tanishtirishdir. Maqolada parazitlarning turlari, tarqalish usullari, individual hayot sikllari va parazitlar kasalliklarning global muammosi haqida umumiy ma'lumot berilgan. Mavjud nazorat va oldini olish strategiyalari va kelajakdagi tadqiqotlar uchun yo'nalishlar, shuningdek, xavfli va ba'zi eng muhim parazitlar kasalliklar uchun kasalliklari haqida misollari ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: parazitologiya, leishmania donovani, trypanosoma gambiense, opistorxoz qo'zg'atuvchisi.

**DISEASES CAUSED BY PARASITES AND THEIR PREVENTIVE
MEASURES.**

Abdullayeva I.B ,Roziyeva G.T

**Termiz University of Economics and Service, Termiz city, Farovon
massif**

43B-house, e-mail: esadir_74@rambler.ru

Abstract: The purpose of this article is to introduce the wide and diverse world of parasites, the diseases they cause, and how they fit into the broader field of public health. The article provides an overview of the types of parasites, their distribution methods, individual life cycles, and the global problem of parasitic diseases. Current control and prevention strategies and directions for future research are highlighted, as well as disease examples for dangerous and some of the most important parasitic diseases.

Key words: parasitology, leishmania donovani, Trypanosoma gambiense, causative agent of opisthorchiasis.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

ЗАБОЛЕВАНИЯ, ВЫЗВАННЫЕ ПАРАЗИТАМИ, И МЕРЫ ИХ ПРОФИЛАКТИКИ.

Абдуллаева .И.Б , Рузиева .Г.Т

Термезский университет экономики и сервиса, г. Термез,
массив Фараван

43Б-дом, e-mail: esadir_74@rambler.ru

Аннотация: Цель этой статьи — представить широкий и разнообразный мир паразитов, болезни, которые они вызывают, и то, как они вписываются в более широкую область общественного здравоохранения. В статье представлен обзор видов паразитов, способов их распространения, индивидуальных жизненных циклов и глобальной проблемы паразитарных заболеваний. Освещены текущие стратегии контроля и профилактики, а также направления будущих исследований, а также примеры опасных и некоторых наиболее важных паразитарных заболеваний.

Ключевые слова: паразитология, leishmania donovani, Trypanosoma gambiense, возбудитель описторхоза.

Kirish.Parazitlar keltirib chiqaradigan xavfi bo'lgan bemorlarda boshqa kasalliklarga o'xshash alomatlar bo'ladi. Umumiy simptomlar fokal nevrologik alomatlar, bosh og'rig'i, uyquning buzulishi, ko'ngil aynishi, qusish yoki papillaning shishishi (obstruktiv gidrosefali). Parazitlar keltirib chiqaradigan markaziy asab tizimining shikastlanishi immuniteti zaif yoki zaiflashgan bemorlarda paydo bo'lishi mumkin.

Dizenteriya amyobasi (Entamoeba histolytica) — amyobiaz yoki amyoba dizenteriyasining qo'zg'atuvchisi. Y o'g 'on ichakda parazitlik qiladi. Organizm rezistentligi (chidamliligi) kamayganda (sovuqqa oldirish, avitaminoz, issiq harorat ta'sirida bo'lish) forma minutda kattalashadi (30-50 mkm gacha), ichakning devoriga kiradi va to'qima shakliga aylanadi. Natijada, qon tomirlari jarohatlanadi, qon oqishi kuzatiladi, yaralar paydo bo'ladi (yarali kolit). Sistalar tashqi muhit omillari ta'siriga o'ta chidamlidir. Sistalar tarqalishida mexanik tashuvchilar (ularda parazit ko' paymaydi, faqat mexanik ravishda ko' chiriladi) — suvaraklar, pashshalar katta rol o'ynaydi. Odamga yuvilmagan mevalar, sabzavotlar, qaynatilmagan suv, iflos qo'llar orqali

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

yuqadi. Kasallarda qon va shilliq aralash tez-tez ich ketish kuzatiladi. Amyobalar qon tomirlari orqali jigar, miya, o'pka va boshqa a'zolariga borib, o'sha a'zolar yiringlashiga (abscess) sabab bo'lishi mumkin

Ссылка на статью отсутствует

Leishmania donovani — ichki leishmanioz qo'zg'atuvchisi. Avval teriosti yog' kletchatkasining retikuloendotelial hujayralarida joylashib, keyin jigar, taloq, suyak ko'migi hujayralariga o'tadi. Leishmaniyalar ichki a'zolar hujayralarida ko'payadi, periferik qonda uchramaydi. Visseral leishmanioz bilan asosan bolalar kasallanadi. Kasallarda harorat ko'tariladi, kamqonlik kuzatiladi, jigar, taloq, limfa tugunlari kattalashadi. Uni yuqtirmaslik uchun shaxsiy choralar — iskabtoparlar chaqishidan himoyalaniish. Jamoat choralariga esa iskabtoparlar ko'payishiga qarshi kurashishni amalga oshirish, kemiruvchilarni va daydi itlarni yo'qotishdir. Ularning xivchinsiz shakllari odam va hayvonlar terisidagi fagotsitar hujayralar sitoplazmasida yashaydi. Xivchinli shakllari esa iskabtopar organizmida yashaydi. Tananing ochiq joylarida juda qiyin tuzaluvchi yaralar hosil qiladi. Yaralar bitganidan keyin o'

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

rnida chandiqlar qoladi. Leyshmaniozlar antropozoonozlar guruhiga mansub hisoblanadi.

Trypanosoma gambiense — tripanosomoz (Afrika uyqu kasalligi) qo'zg'atuvchisi. Qon plazmasida, limfada, limfa bezlarida, orqa miya suyugligida, bosh va orqa miya to'qimalarida parazitlik qiladi. U bilan kasallangan bemorlarda seruyqilik, mushaklar holsizligi alomatlari kuzatilib, kasallik 7-10 yilgacha davom etadi va bu ko'pincha o'limga olib keladi. Shaxsiy choralar — dorilarni ichish, umumiy choralar — se-se pashshalarini yo'qotish, ular ko'payadigan joylar, chakalakzorlarni tozalash.

Jigar so'rg'ichi (*Fasciola hepatica*) — fassiolez qo'zg'atuvchisi. Jigarning o't yo'llarida, o't pufagida, ba'zan oshqozon osti bezida parazitlik qiladi. Odamga qaynatilmagan suv, yuvilmagan meva va sabzavotlardan yuqadi. Natijada jigar hujayralari jarohatlanib, sirroz, mexanik sariqlik rivojlanadi. Kasallikni oldini olish uchun esa ko'lmak suvlarni ichmaslik, meva va sabzavotlarni yuvib iste'mol qilish kerak hamda kasallangan hayvonlarni davolash orqali parazit yoqishini oldini olish mumkin.

Mushuk (Sibir) so'rg'ichi (*Opisthorchis felinus*) — opistorxoz qo'zg'atuvchisi.

Odamga yaxshi pishirilmagan, yaxshi qovurilmagan, yaxshi tuzlanmagan, yoki yaxshi dudlanmagan baliq iste'mol qilinganda yuqadi. Opistorxoz tabiiy-manbali kasallik. Jigar va boshqa ichki a'zolari faoliyati buzilishi natijasida o'limga ham sabab bo'luvchi og'ir parazitlar kasalligidir. Shaxsiy profilaktika — xom, yaxshi pishirmagan, qovurilmagan kam tuzlangan, yaxshi dudlanmagan baliqlarni iste'mol qilishdan saqlanish, jamoat profilaktikasi — sanitariya-oqartuv ishlari, suv havzalarini axlatlar bilan ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik choralari orqali amalga oshiriladi.


МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

Exinokokk (Echinococcusgranulosus) — exinokokkoz
qo'zg'atuvchisi.Odamga asosan kasal itlarning junini silaganda tuxumlar iflos
qo'llar orqali yuqadi. Odam ichagida



tuxumdan onkosferalar chiqib, qon tomirlariga o'tadi, jigar, o'pka, miya va boshqa a'zolariga tarqaladi, o'sha a'zolarida finnaga (exinokokk pufakchasiga aylanadi).Exinokokk pufagi ikki qavatli qobiq bilan o'ralgan, ichi suyuqlik bilan to'la bo'ladi. Qobiqning ichki qavatida ko'p sonli qizliknevaralik pufakchalari shakllanadi, ularning ichida sk'olekslari bo'lgan bosh chiqaruvchi kameralar rivojlanadi.Definitiv xo'jayinlarga kasallik finnali a'zolari yoki o'lik hayvonlarni yeganda yuqadi. Odam exinokokkoz tarqalishida ishtirok etmaydi.Shaxsiy profilaktika — itlar va boshqa hayvonlarga ovqat bergandan keyin ham albatta qo'lni yaxshilab yuvish zarur. Jamoat profilaktikasi — daydi itlarni yo'qotish, itlarni doimo veterinar ko'rigidan o'tkazib turish, kasal itlarni degelmintizatsiya qilish, finnalar bilan zararlangan a'zolari itlarga berilishiga yo'l qo'ymaslik, go'sht kombinatlarida veterinariya nazoratini yo'lga qo'yish, exinokokkoz ko'p tarqalgan hududlarda aholini tibbiy ko'rikdan o'tkazib turish orqali amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, parazitlarni yuqtirmaslik uchun shaxsiy gigiyena qoidalariga qat'iy rioya qilish kerak.Tasmasimon chuvalchaglarni yuqtirmaslik uchun go'sht mahsulotlarini yaxshi pishirib iste'mol qilish lozim.Bunday chuvalchaglarni tarqalishini oldini olish uchun esa hayvonlarning zararlangan organlarini itlarga bermaslik kerak.Kushxonalardan chiqayotgan go'sht mahsulotlarini qat'iy nazoratga

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

olish zarur. Daydi itlarga qarshi kurashish va shaxsiy gigiyenaga rioya qilish
exinokokk bilan zararlanishni oldini oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Holiqov P.X., Sharofiddinxo‘jayev N.Sh., Olimxo‘jayeva P.R., Rahimov J.R.,Toshxo‘jayev P.I. Biologiya. Tibbiyot institutlari talabalari uchun darslik. T., 1996.18-b.
2. Tibbiy biologiya va genetika. K. Nishonboyev, J Hamidov . 225-b.

ULTRATOVUSH BILAN SHOLI POXOLIGA ISHLOV BERISH.

Urozo M. K., Aliqulova D.A., Abdullayeva M.J., Suvanova D.T., Nomozova M. A

Аннотация: *Ultratovushdan foydalanish mahsulot unumini oshirib, vaqtni qisqartiradi. Sholi poxolini 100 °C da 15 daqiqa davomida 10 Vt quvvatga ega ultratovush bilan ishlashda, ultratovushsiz bir xil haroratda 60 daqiqa davomida (43,1%) ishlov berishdan ko‘ra yuqori unum (44,6%) ga erishildi. Quvvatning 50 Vt ga oshishi bilan unum 53,1% gacha ko‘tariladi va bu 30 Vt dan ortiq nurlanish kuchida eng sezilarli bo‘ladi.*

Калит сўз: *lignin fraksiyasi, TS fraksiyasi, GS fraksiyasi, STD (sellyulozani tozalanganlik darajasi), dimetilsulfoksid karbamid, ultratovush ion suyuqligi, sholi poxolii, termik ishlov berilgan sholi poxoli.*

Tadqiqot maqsadi: Dimetilsulfoksid karbamid muhitida termik ishlov berishda sholi poxoli biomassasining komponentlarini kimyoviy aylanishlarini va kislotali va fermentli gidroliz jarayonida sholi poxoli polisaxaridlarining reaksiyon qobiliyatiga ta‘sirini o‘rganish.

IS muhitida sholi poxoli biomassasiga termik ishlov berishdan olingan mahsulotlarni fraksiyalashning sxemasi tavsiya qilingan bo‘lib, u tarkibida 75 % gacha selluloza bo‘lgan TS (texnik selluloza) fraksiyasini, 81 % gacha bo‘lgan gemitsellyuloza fraksiyasini va aromatik fragmentlari yuqori tarkibli lignin fraksiyasini ajratish imkonini beradi. Olingan mahsulotlar ilmiy tadqiqotning ob‘ektlari hamda kimyoviy va biokimyoviy jarayonlar uchun xom ashyo sifatida foydalanilishi mumkin. Dimetilsulfoksid karbamiddan qayta foydalanishda samaradorligini yo‘qotmasdan undan butunlay aralashmalarni chiqarilishini ta‘minlaydigan yuqori kritik CO₂ - ekstraksiyasi va adsorbsiyasi jarayonlarining sharoitlari aniqlandi.

Mavzuning dolzarbligi: Ma‘lum bo‘lishicha, dimetilsulfoksid karbamid muhitida sholi poxolii polisaxaridlariga termik ishlov berilishidan keyin kislotali va fermentli gidroliz sharoitlarida ularning reaksiyon qobiliyati mos tarzda 1,5 va 5,3 marta ortadi. IS dan sholi poxoli biomassasiga termik ishlov berish orqali quyi molekular mahsulotlarini ilk bor olish uchun yuqori kritik CO₂ - ekstraksiyasi va faollashtirilgan ko‘mir adsorbsiyasi metodlari

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

qo'llanilgan. Ma'lum bo'lishicha, IS dan mahsulotlarni ajralishi va regeneratsiyasi uchun taklif qilingan metodlarning yuqori samaradorligi aniqlandi.

ЭКСПЕРИМЕНТ QISMI

Dimetilsulfoksid muhitida sholi poxoliga ultratovushli issiqlik bilan ishlov berish.

Sholi poxoli dimetilsulfoksid muhitida 5, 10 va 15 daqiqa davomida 80-140 °C harorat oralig'ida 10, 30 va 50 Vt ultratovushli nurlanish bilan ishlov berildi.

Ultratovushdan foydalanish sellulyozaning tozalanganlik darajasi (STD) ning oshishiga yordam beradi va ishlash muddatini qisqartiradi. Shunday qilib, sholi poxolini 100 °C da 15 daqiqa davomida 10 Vt quvvatga ega ultratovush bilan ishlov berishda, ultratovushsiz bir xil haroratda 60 daqiqa davomida (43,1%) ishlov berishdan ko'ra yuqori STD (44,6%) ga erishildi. Quvvatning 50 Vt ga oshishi bilan STD 53,1% gacha ko'tariladi va bu 30 Vt dan ortiq nurlanish kuchida eng sezilarli bo'ladi.

Ultratovushsiz sholi poxolini qayta ishlashda, xuddi shunday tozalash darajasi 120 °C da 7 soat davomida olingan. Xuddi shunday sharoitda gemitsellyulozaning taxminan 60 % ajralgan.

Quvvatning 50 Vt ga oshishi bilan GS fraktsiyasining chiqishi 4% ga, lignin fraktsiyasi esa atigi 1% ga oshadi. Sholi poxolidan gemitsellyulozaning 90% dan ortig'i 140 °C da 15 daqiqa ichida olinadi.

Ultratovush bilan ishlov berishda GS fraktsiyasi ajralishining oshishi lignin va gemitsellyuloza o'rtasidagi ester aloqalarining yanada samarali yo'q qilinishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin, ularning sholi poxolida mavjudligi ish natijalari bilan tasdiqlanadi. Natijada, agar sholi poxolini ultratovushsiz 100 °C da 1 soat davomida ishlash paytida lignin fraktsiyasining rentabelligi 5,9% bo'lsa, 10 Vt quvvatga ega ultratovushdan foydalanilganda, uning unumdorligi 15 daqiqada allaqachon 6,7% gacha oshadi va quvvat 50 Vt gacha ko'tarilganda - 7,8 % gacha oshadi. O'rganilgan sharoitda lignin fraktsiyasining maksimal rentabelligi 140 °C da (15 min, 50 Vt) da 10,8% ni tashkil qildi.

amaliy bo'lishini ta'minlash maqsadida, adabiyotlar o'zbek tilida bo'lishi bilan birga, xalqaro standartlarga ham moslashtirilmogda [5]. Bunday o'quv materiallari nafaqat o'quvchilarning bilimlarini oshirish, balki ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. O'qituvchilarni tayyorlash jarayoni O'zbekiston ta'lim tizimining samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbek tilida ta'lim beruvchi o'qituvchilarni tayyorlash uchun yangi trening dasturlari ishlab chiqilgan. Bu dasturlar o'qituvchilarning malakalarini oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va innovatsion uslublarni qo'llashga qaratilgan [6].

O'qituvchilarni tayyorlash jarayonida O'zbekistonning ta'lim muassasalarida pedagogik kadrlar sifatini oshirish, ularni o'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik uslublar bilan tanishtirish, shuningdek, ularning o'zaro tajriba almashishlari uchun imkoniyatlar yaratilmogda. O'qituvchilarning malakalarini oshirish maqsadida, xalqaro tajribalarni o'rganish va amalga oshirish yo'nalishida keng ko'lamli chora-tadbirlar o'tkazilmogda [7]. Innovatsion texnologiyalar ta'lim jarayonida muhim o'rin tutadi. Masofaviy ta'lim platformalari, multimedia vositalari, va interaktiv metodlar orqali o'quvchilar ta'lim olish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar. O'quvchilarni raqamli texnologiyalar bilan tanishtirish, ularni ta'lim jarayoniga joriy etish orqali o'qitish sifatini oshirishga erishilmogda [8].

Xulosa qiladigan bo'lsak, o'zbek tilida ta'lim va ta'lim tizimida o'zgarishlar kelajak avlodlar uchun muhim ahamiyatga ega. O'zbek tilining davlat tili maqomi, ta'lim jarayonida yanada mustahkam ahamiyatga ega bo'lib, milliy madaniyat va qadriyatlarni saqlab qolish, shuningdek, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. O'zbek tilida ta'lim berish nafaqat bilim olish jarayoni, balki o'zbek xalqining tarixiy va madaniy merosini asrab-avaylash va davom ettirishni ta'minlashga qaratilgan muhim bir vosita hisoblanadi. Ta'lim tizimidagi o'zgarishlar nafaqat o'quv dasturlarini va o'quv adabiyotlarini yangilashda, balki o'qituvchilar malakasini oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, va o'quvchilarda O'zbek tiliga bo'lgan qiziqish va hurmatni shakllantirishda ham o'z aksini topmogda. Bunday o'zgarishlar, O'zbekistonning global ta'lim maydonidagi o'rmini mustahkamlash, xalqaro standartlarga mos keladigan ta'lim sifatini ta'minlash, shuningdek, yosh avlodlarni global dunyoda muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun zarur ko'nikmalar bilan ta'minlash imkonini beradi. Bundan tashqari, O'zbek

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

tilida ta'lim berish jarayonida innovatsion texnologiyalar va onlayn ta'lim tizimlaridan foydalanish, o'quvchilarning ta'lim sifatini oshirish va ularni jahon miqyosida raqobatbardosh qilishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlar va o'zbek tilining o'rganilishiga alohida e'tibor qaratilishi, yosh avlodning o'ziga xos shaxs sifatida rivojlanishiga, milliy kimligini shakllantirishga xizmat qiladi. Kelajakda, ta'lim tizimidagi o'zgarishlar davom etishi, muammolarni hal etish va yangi imkoniyatlarni yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarur. O'zbek tilida ta'lim berish tizimining yanada rivojlanishi, nafaqat tilni, balki butun O'zbekistonning madaniyatini va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ham qo'llab quvvatlaydi. Shunday qilib, O'zbek tilida ta'lim tizimida olib borilayotgan o'zgarishlar va yangiliklar, nafaqat o'quvchilar, balki butun jamiyat uchun muhim ahamiyatga ega. Bu o'zgarishlar milliy til va madaniyatni yanada rivojlantirishga, o'zbek tilida ta'lim berish sifatini oshirishga, va mustaqil, raqobatbardosh avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi. O'zbekistonning ta'lim tizimi zamonaviy talablar va globalizatsiya sharoitida o'zgarishga tayyor turib, kelajakda yana ko'plab yutuqlarga erishish imkoniyatini yaratishi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Raxmonov, M. (2022). O'zbek tilida ta'lim dasturlarini yangilash: Tezkor tahlil va istiqbollari. O'zbekiston Ta'limi, 12(3), 45-50.
2. Karimov, I. (2017). Yoshlar siyosati va ta'lim: O'zbekistonda yangilanishlar. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar Vazirligi, 5(1), 10-14.
3. To'raqulov, J. (2020). O'quv adabiyotlari va ularning ta'lim jarayonidagi roli. O'zbek Tili va Adabiyoti, 9(2), 23-28.
4. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim Vazirligi (2022). Yangi o'quv dasturlari va ularning ta'lim sifatiga ta'siri. O'zbekiston Ta'limi, 11(1), 15-20.
5. Abdullaeva, D. (2019). O'quv adabiyotlari va ularning ta'lim jarayonidagi roli. O'zbekiston Ta'lim Tizimi, 8(4), 30-35.
6. Ismoilov, R. (2021). O'qituvchilarni malakasini oshirish: Ta'lim sifatini yaxshilashning asosiy omillari. Ta'lim va Innovatsiyalar, 15(1), 15-20.
7. Mamatqulov, U. (2020). Innovatsion texnologiyalar ta'lim jarayonida: O'zbekiston tajribasi. Ta'lim va Innovatsiyalar, 14(2), 22-28.
8. Rahmonov, M. (2023). Zamonaviy o'qitish metodlari va ularning ta'lim jarayonidagi roli. O'zbek Ta'limi, 19(3), 50-55.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

NEYRONLAR VA SINAPSLAR FIZIOLOGIYASI

Nazirova Dinora Sodiq qizi, Babamuratov Bekzod Ergashevich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Termiz Shahar, Farovon massivi 4B-
уу.

Annotasiya: Inson organizmida nerv sistemasining o'рни judayam katta Markaziy nerv tizimining struktura funksional birligi nerv hujayrasi- neyron hisoblanadi. Neyronlar kattaligi 6 mkm dan 120 mkm gacha bo'ladi. Bitta neyronda 10000 tagacha sinapslar bo'lishi aniqlangan .Bu maqolamizda neyronlar va sinapslarning fiziologiyasi haqida ma'lumot keltirilgan.

Abstract: The role of the nervous system in the human body is very large. The structural and functional unit of the central nervous system is the neuron. The size of the neurons is from 6 mkm to 120 mkm. It has been determined that there are up to 10,000 synapses in one neuron. This article provides information about the physiology of neurons and synapses.

Аннотация: Роль нервной системы в организме человека очень велика. Структурно-функциональной единицей центральной нервной системы является нейрон. Размеры нейронов от 6 мкм до 120 мкм. до 10 000 синапсов в одном нейроне. В данной статье приведены сведения о физиологии нейронов и синапсов.

Kalit so'zlar: unipolyar, bipolar, meyilensiz nerv tolasi , meyilenli nerv tolasi, neyron, sinaps, akson, dentrit, astrotsit, oligodentrotsit, epindimial hujayra, affirint, effirent .

Key words: unipolar, bipolar, unmyelinated nerve fiber, myelinated nerve fiber, neuron, synapse, axon, dendrite, astrocyte, oligodentrocyte, epindymal cell, afferent, efferent.

Ключевые слова: униполярное, биполярное, безмиелинизированное нервное волокно, миелинизированное нервное волокно, нейрон, синапс, аксон, дендрит, астроцит, олигодентроцит, эпиндимальная клетка, афферент, эфферент.

Neyronlar ixtisoslashgan hujayra hisoblanib, ular informatsiyalarni qabul qilish, qayta ishlash, kodlash, saqlash va uzatish hamda ta'sirotlarga beriladigan reaksiyalarni tashkil etish, boshqa neyronlar bilan o'zaro aloqa o'rnatish xususiyatlariga ega hisoblanadi. Ular elektrik impulslarni xosil qiladi va axborotlarni

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

nerv oxirlari maxsus tuzilmasi -sinapslar yordamida ijrochi a'zoga uzatib beradi. Neyronlar uchta asosiy qismdan iborat:

Dendritlar: Ushbu qismlar boshqa neyronlardan kelayotgan signalni qabul qiladi.

Soma (tana): Neyronning asosiy qismi bo'lib, uning funksiyalarini amalga oshiradi va energiya ishlab chiqaradi.

Akson: Signalni boshqa neyronlarga yoki mushak hujayralariga uzatadigan uzun, ingichka qismdir.


Neyronning tuzilishi uning qanday vazifani bajarishiga bog'liq bo'ladi. Neyron tuzilishiga ko'ra uch ko'rinishga bo'linadi: unipolyar, bipolyar va multipolyar.

Unipolyar neyronlar uchshoxlik nervning mezensefal yadrosida joylashadi. Bu neyron chaynov muskullarning proprioretseptiv sezuvchanligini ta'minlaydi.

Shu bilan birgalikda **pseudounipolyar neyronlar** ham bor. Ularning ikkita o'simtasi bo'ladi bittasi periferiyadan, ya'ni retseptordan kelsa, ikkinchisi markaziy nerv tizimida bo'ladi. Ikkala o'simta hujayra tanasining oldida birlashib bitta o'simtani hosil qiladi. Ular harorat, og'riq kabi signallarni qabul qilishni ta'minlaydi.

Bipolyar neyronlarda bitta akson bitta dentrit bo'ladi. Bular ko'ruv, eshituv va xid biluv tuzilmalarining periferik qismlarida uchraydi.

Multipolyar neyronlarda bitta akson va bir nechta dentrit bo'ladi. Hozirgi kunda 60 dan ortiq multipolyar neyron turlari mavjud.



МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

Нейронлар funksional jihatdan 3 turga bo'linadi.

Sensor neyronlar (afferent neyronlar): Bu neyronlar atrof-muhitdan masalan, teginish, harorat, og'riqdan keladigan ma'lumotlarni markaziy nerv tizimiga uzatadi. Ular tuyg'ular va his-tuyg'ularni qayd etishda muhim ahamiyatga ega.

Motor neyronlar (efferent neyronlar): Bu neyronlar markaziy nerv tizimidan mushaklarga yoki bezlarga signal uzatadi. Ular harakatlar va harakatni boshqarishda rol o'ynaydi.

Interneyronlar: Bu neyronlar markaziy nerv tizimi ichida ma'lumotni qayta ishlash va boshqa neyronlar o'rtasida aloqani ta'minlashda muhimdir. Ular sensor va motor neyronlar o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajaradi.

Ushbu neyronlar birgalikda muvofiq ishlash orqali tana funksiyalarini boshqaradi va tezkor javob berish imkonini yaratadi.

Meyilenli va meyilensiz nerv tolalari orqali qo'zg'alish o'tkazilishi murakkab va qiziqarli jarayondir. Ushbu tolalar nerv tizimining asosiy tuzilmalari sifatida muhim rol o'ynaydi.

Meyilenli nerv tolalari

Meyilenli nerv tolalari, ya'ni myelin qoplamasiga ega tolalar, asosan tezkor signallarni uzatishda ishlatiladi. Myelin — nerv tolalarini o'rab oluvchi lipid qatlamidir. Ular:

Tezlik: Meyilenli tolalarda impulslar saltik usulda (saltik orqali) uzatiladi. Bu, impulsning myelinli bo'laklar o'rtasida sakrab o'tishi orqali amalga oshadi, bu esa uzatish tezligini oshiradi. Masalan, bu tolalar orqali impulslar 100 m/s gacha tezlikka yetishi mumkin.

Energiya tejash: Myelin qoplamasi nerv tolalarining elektr qarshiligini kamaytiradi, bu esa energiya sarfini ham kamaytiradi.

Meyilensiz nerv tolalari

Meyilensiz nerv tolalari esa myelin qoplamasiga ega emas. Ular asosan:

Sezilarli sekinlik: Bu tolalarda impuls uzatilishi sekinroq — taxminan 1-5 m/s. Bu, impulsning butun uzunlik bo'ylab uzatilishi bilan bog'liq.

Muayyan vazifalar: Meyilensiz tolalar ko'pincha sezgi va ichki organlar bilan bog'liq nerv tolalari sifatida ishlatiladi. Ular ko'proq og'riq va boshqa noxush his-tuyg'ularni uzatishda muhimdir.


МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

Meyilenli nerv tolasining tarkibi: qiyshiq silindr, ranve bo'g'irlari, meyilen qobiq, shvan hujayrasi. Meyilensiz nerv tolasining tarkibi esa qiyshiq silindr, shvan qobig'idan iborat.



Nerv to'qimasi ikkita katta guruhga bo'linadi: neyronlar va neyrogliya. Neyrogliya ham ikkita guruhga bo'linadi: makrogliya va mikroglia.

Makrogliyalalar nerv tizimining muhim komponentlaridir va asosan glial hujayralar sifatida tanilgan. Ular neyronlardan farqli o'laroq, asosan qo'llab-quvvatlash va himoya vazifalarini bajaradi. Makrogliyaga quyidagilar kiradi:

Astrositlar:

Vazifasi: Nerv hujayralarining muvozanatini saqlash, oziqlanishni ta'minlash, va qon-miya to'sigini qo'llab-quvvatlash. Ular neyronlar o'rtasida axborotni tarqatishda ham ishtirok etadi.

Oligodendrositlar:

Vazifasi: Markaziy nerv tizimidagi myelin qoplamasini hosil qilish va saqlash. Bu qoplama nerv impulslarining tez va samarali o'tishini ta'minlaydi.

Ependimal hujayralar:

Vazifasi: Miya suyuqligini ishlab chiqarish va uni tarqatish. Ular miya ventrikullarini qoplab, suyuqlikning oqimini nazorat qiladi.

Bu makrogliyalalar nerv tizimining to'g'ri ishlashi va himoyasi uchun juda muhimdir. Ular neyronlar bilan hamkorlikda, ularning funksiyalarini qo'llab-quvvatlash va muvozanatni saqlashda muhim rol o'ynaydi.

Mikroglialar:

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

Vazifasi: Immunitet funksiyalarini bajarish, ya'ni markaziy nerv tizimida infektsiyalar va zararlangan hujayralarni aniqlash va yo'q qilish. Ular shuningdek, nerv to'qimalarini himoya qiladi.

Sinapslar fiziologiyasi – asab hujayralari (neyronlar) o'rtasidagi yoki neyronlar va boshqa to'qimalar (mushaklar, bezlar) o'rtasidagi signal almashinuvi jarayonlarini o'rganuvchi bo'limdir. Sinapslar markaziy va periferik nerv tizimida signallarni uzatishda asosiy rol o'ynaydi. Ular orqali impulslar bir hujayradan ikkinchisiga o'tadi, bu esa turli reflekslar, harakatlar, hissiyotlar va fikrlash jarayonlarini boshqarishda muhim ahamiyatga ega.

Neyronlarning noto'g'ri ishlashi ko'plab asab tizimi kasalliklariga olib kelishi mumkin. Masalan:

Altsgeymer kasalligi: Neyronlar orasidagi aloqa va neyronlar o'limi natijasida xotira va kognitiv qobiliyatlarning yomonlashuvi.

Parkinson kasalligi: Neurotransmitter dopamin ishlab chiqaruvchi neyronlarning yo'qolishi natijasida harakatlarning boshqarilishi buziladi.

Epilepsiya: Neyronlarning ortiqcha elektr faolligi natijasida miyada epileptik tutqanoqlar yuzaga keladi.

Sinapsning tuzilishi

Sinapsning asosiy tarkibiy qismlari:

1. Presinaptik membrana – nerv impulsini uzatadigan neyronning oxirgi qismi. Bu qismda neurotransmitterlar deb ataluvchi kimyoviy moddalar saqlanadi.
2. Postsinaptik membrana – impulsni qabul qiladigan neyron yoki boshqa to'qima hujayrasi.
3. Sinaptik bo'shliq – presinaptik va postsinaptik membranalar orasidagi tor bo'shliq.

Sinaptik uzatish uchta asosiy bosqichda amalga oshadi:

1. Neyronning qo'zg'alishi va neurotransmitter ajralishi: Neyron orqali elektr impulsi aksiyon potentsiali o'tganda, presinaptik membranadagi kaltsiy kanallari ochiladi va kaltsiy ionlari ichkariga kiradi. Bu esa sinaptik pufakchalar vesikulalar ichidagi neurotransmitterlarni sinaptik bo'shliqqa chiqarishga olib keladi.

2. Neurotransmitterlarning sinaptik bo'shliq orqali uzatilishi: Neurotransmitterlar sinaptik bo'shliq orqali diffuziya yo'li bilan postsinaptik membranaga yetib boradi. Bu yerda ular postsinaptik retseptorlarga bog'lanadi.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

3. Postsinaptik neyronning javobi: Neyrotransmitterlar retseptorlarga bogʻlanganda, postsinaptik membranada ion kanallari ochiladi yoki yopiladi, bu esa hujayra ichida elektr potensialining oʻzgarishiga olib keladi. Agar yetarli darajada qoʻzgʻalish hosil boʻlsa, yangi aksiyon potentsiali yuzaga keladi va impuls yangi neyron orqali uzatiladi.

Neyrotransmitterlar va ularning turlari

Neyrotransmitterlar sinaptik uzatishda asosiy rol oʻynaydi. Ular kimyoviy moddalar boʻlib, turli xil fiziologik jarayonlarni boshqaradi. Eng mashhur neyrotransmitterlarga quyidagilar kiradi:

- Asetilxolin – asosan mushaklar qisqarishi va avtonom nerv tizimida qoʻllaniladi.

- Dopamin – motivatsiya, xotira va zavq bilan bogʻliq.

- Serotonin – kayfiyatni boshqarishda ishtirok etadi va uyquga ta'sir qiladi.

- Glutamat – asosiy qoʻzgʻatuvchi neyrotransmitter.

- GABA (gama-aminomoy kislotasi) – asosiy tormozlovchi neyrotransmitter.

Sinaptik plastiklik va oʻrganish

Sinapslar faqat impulslarni uzatish uchun emas, balki plastiklik xususiyatiga ega boʻlib, ular oʻz vazifalarini vaqt oʻtishi bilan oʻzgartirishi mumkin. Bu jarayonlar oʻrganish va xotira shakllanishida katta rol oʻynaydi. Sinaptik plastiklik ikki xil boʻlishi mumkin:

- Uzun muddatli kuchayish (LTP) – bu postsinaptik javobning uzoq muddat davomida kuchayishi.

- Uzun muddatli susayish (LTD) – aksincha, postsinaptik javobning susayishi.

Sinapslarning turli turlari

Sinapslar ikki asosiy turga boʻlinadi:

1. *Kimyoviy sinapslar* – bu turdagi sinapslarda impulslar kimyoviy moddalar (neyrotransmitterlar) orqali uzatiladi. Ular keng tarqalgan va murakkab nerv tarmoqlarida asosiy rol oʻynaydi.

2. *Elektr sinapslar* – bu sinapslar orqali impulslar toʻgʻridan-toʻgʻri hujayradan hujayraga elektr signallari shaklida oʻtadi. Ular tez va bevosita javob berish uchun moʻljallangan.

Xulosa

Sinapslar asab tizimining asosiy qismlaridan biri boʻlib, ular orqali impulslar neyronlar orasida uzatiladi va bu jarayon organizmning turli faoliyatlarini

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

boshqarishga yordam beradi. Sinaptik uzatishning to'g'ri amalga oshishi muhim, chunki uning buzilishi turli kasalliklar va holatlarning rivojlanishiga olib kelishi mumkin, masalan, Altsgeymer kasalligi, Parkinson kasalligi va depressiya. Ichki muhitdan kelayotgan signallarni qabul qilish, qayta ishlash va uzatish orqali barcha hayotiy jarayonlarni boshqaradi. Neyronlar tuzilishi va faoliyati natijasida inson tanasi muvozanatli ravishda harakat qiladi, fikrlaydi va his qiladi. Neyronlarning elektr va kimyoviy signallar orqali bir-biri bilan muloqot qilishi insonning asab tizimi samarali ishlashini ta'minlaydi. Ushbu mexanizmlar tufayli inson atrof-muhit bilan moslashadi va o'z organizmini boshqaradi. Neuron fiziologiyasining chuqur o'rganilishi tibbiyot va ilm-fan sohalarida ko'plab yangi kashfiyotlarga yo'l ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.To'xtayev. Gistologiya sitologiya va embriologiya.
2. O.T.Alyaviya,SH.Q.Qodirov,A.A.Nishanova. Fiziologiya.
3. A.Ahmedov.O',Mirsharapov.T.Sagatov,H.Rasulov.Anatomiya II jild
4. H.Rasulov,A.Ahmedov.Anatomiya atlas
- 5.Babskiy.Odam fiziologiyasi
- 6.Косийкий-физиология человека
- 7.Гайтон_Холл_Медицинская_физиология

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

NERV SISTEMASI VA UNING ANATOMIYASI

Ergasheva Marjona Umidillo qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Tibbiyot fakulteti davolash ishi
yo'nalishi 2-kurs, marjonaergasheva310@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada nerv sistemasining tuzilishi, asosiy bo'limlari va ularning funksiyalari batafsil yoritilgan. Nerv sistemasi organizmdagi eng muhim tizimlardan biri bo'lib, uning vazifasi tashqi va ichki muhitdagi o'zgarishlarga javob qaytarish, axborotni qayta ishlash va organlar faoliyatini boshqarishdir. Maqolada markaziy va periferik nerv sistemalari, ularning asosiy tarkibiy qismlari, shuningdek, neyronlar funksiyasi haqida keng ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: nerv sistemasi, markaziy nerv sistemasi, periferik nerv sistemasi, neyron, miya, orqa miya.

Kirish. Nerv sistemasi hayot uchun zarur bo'lgan barcha jarayonlarni boshqarishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu tizim orqali organizm tashqi va ichki muhit bilan uzluksiz axborot almashinuvi amalga oshiriladi. Nerv sistemasi markaziy (MNS) va periferik (PNS) qismlarga bo'linadi. MNS miya va orqa miyadan tashkil topgan bo'lib, axborotlarni qayta ishlash va qaror qabul qilish markazi hisoblanadi. PNS esa MNS bilan tana a'zolari o'rtasidagi aloqani ta'minlab, harakatlarni va ichki organlar faoliyatini muvofiqlashtiradi. Ushbu maqolada nerv sistemasining anatomik tuzilishi, uning asosiy tarkibiy qismlari va ular o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinadi. Neyronlarning asosiy funksional elementlari, axborot uzatish jarayonlari va reflektor mexanizmlar ham yoritiladi.

Materiallar va usullar

Ushbu tadqiqotda ilmiy adabiyotlar va tibbiyot darsliklaridan foydalanildi. Nerv sistemasi tuzilishini o'rganishda anatomik atlaslar va neurobiologik tadqiqotlar natijalari tahlil qilindi. Tadqiqotda nerv sistemasi bo'yicha amaliy fiziologik tadqiqotlar ham o'rganilib, ularning fiziologik jarayonlardagi roli tushuntirildi. Shu bilan birga, neyronlar va ularning axborot uzatish jarayonlari elektr impulslari orqali qanday amalga oshirilishi eksperimental tadqiqotlar asosida tahlil qilindi.

Markaziy nerv sistemasi Markaziy nerv sistemasi (MNS) inson organizmining asosiy boshqaruvchi tizimi bo'lib, u miya va orqa miyadan iborat. MNSda barcha axborotlar qayta ishlanadi va javob reaksiyalari shakllantiriladi.

1. Miya

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

Miya MNSning eng muhim qismi bo'lib, u murakkab funksiyalarni bajaradi. Miya ko'plab bo'limlardan iborat: bosh miya qobig'i, yarim sharlar, miyaning oraliq va orqa qismlari. Har bir bo'lim alohida vazifalarga ega, masalan, bosh miya qobig'i sezgi organlaridan keladigan ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishlash uchun mas'uldir. Miyaning yarim sharlarida esa xotira, fikrlash va aqliy faoliyatlar amalga oshiriladi.

2. Orqa miya

Orqa miya miyaning davomiy qismi bo'lib, u MNS va PNS o'rtasidagi bog'lanishni ta'minlaydi. Orqa miya reflektor faoliyatni boshqaradi va periferik nervlar orqali signallarni uzatadi. Shuningdek, u sezgi va motor funksiyalarini ham nazorat qiladi.

Periferik nerv sistemasi

Periferik nerv sistemasi (PNS) MNSdan organlar va mushaklarga axborot uzatish bilan shug'ullanadi. U somatik va vegetativ bo'limlarga bo'linadi.

1. Somatik nerv sistemasi: Somatik nervlar ko'ngilli harakatlarni boshqaradi. Bu tizim orqali nerv tolalari orqali signallar markaziy nerv sistemasi va mushaklar orasida uzatiladi. Somatik nervlar ayniqsa mushak-skelet tizimi harakatlarida ishtirok etadi.

2. Vegetativ nerv sistemasi: Vegetativ nervlar esa ichki organlarning avtomatik faoliyatini boshqaradi. U ikki qismga bo'linadi: simpatik va parasimpatik nervlar. Simpatik nervlar stress holatida organizmning "kurash yoki qochish" reaksiyasini shakllantiradi, parasimpatik nervlar esa tinchlanish va dam olish jarayonlarini qo'llab-quvvatlaydi.

Neyronlar: Asosiy funksional birlik

Neyronlar nerv sistemasining asosiy funksional hujayralari hisoblanadi. Ular orqali axborot elektr impulslari shaklida uzatiladi. Neyronlar uch qismdan iborat: dendritlar (axborotni qabul qiluvchi qismlar), soma (hujayra tanasi) va aksonlar (axborotni uzatuvchi qismlar). Har bir neyron boshqa nerv hujayralari yoki mushaklar bilan bog'lanib, axborot uzatish zanjirini shakllantiradi.

Natijalar

Nerv sistemasining tuzilishi va funksiyalari o'rganish jarayonida quyidagi muhim jihatlar aniqlandi:

1. Miya va orqa miya: Tadqiqot davomida markaziy nerv sistemasining insonning harakatlari, sezgi organlari va ichki organlari faoliyatini boshqaruvchi

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

asosiy mexanizm ekanligi tasdiqlandi. Miya yarim sharlaridagi turli bo'limlar intellektual faoliyat, xotira, til va harakatlarni boshqarish uchun mas'uldir.

2. Periferik nerv sistemasi: PNS orqali MNS va tananing boshqa qismlari o'rtasidagi signalizatsiya amalga oshiriladi. Bu tizimning somatik qismi mushaklar va teri orasidagi signal almashinuvini ta'minlaydi, vegetativ qismi esa yurak urishi, nafas olish va hazm qilish kabi jarayonlarni avtomatik boshqaradi.

3. Neyronlarning roli: Neyronlar nerv sistemasining asosiy birliklari bo'lib, ular elektr impulslari orqali axborot uzatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, har bir neyron boshqa hujayralar bilan bog'lanib, murakkab tarmoqni shakllantiradi va organizmdagi har bir jarayonni nazorat qiladi.

4. Refleks mexanizmlari: Orqa miya reflektor mexanizmlar orqali tashqi stimullarga tezkor javob beradi. Bu jarayon organizmni xavf-xatarlardan himoya qilish va tezkor reaksiyalarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Munozara

Ushbu tadqiqotning natijalari nerv sistemasining murakkab tuzilishi va ularning o'zaro bog'liqligini ochib beradi. Markaziy nerv sistemasining inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lishi, ayniqsa miya va orqa miya orqali sezgi organlari va harakatlarni boshqarishdagi rolini tasdiqlaydi. Miya turli qismlarining o'ziga xos funksiyalari, masalan, harakatlar, sezgilar va aqliy faoliyatlarning boshqarilishi aniqlandi. Shuningdek, periferik nerv sistemasining somatik va vegetativ bo'limlarining alohida funksiyalari ham batafsil o'rganildi. Neyronlar va ular orqali axborot uzatish jarayonlari nerv sistemasining ishlashi uchun muhim bo'lgan elektr signallarni uzatishda asosiy vazifani bajaradi. Ushbu jarayonning buzilishi nevrologik kasalliklar kelib chiqishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun neyronlar faoliyatini to'liq o'rganish va ularning ishlashini yaxshilash usullarini izlash muhimdir.

Xulosa: Nerv sistemasi organizmning asosiy boshqaruvchi tizimi bo'lib, uning ishlashi barcha organ va tizimlar faoliyatini muvofiqlashtirishga asoslangan. Miya va orqa miya markaziy nerv sistemasining asosiy qismlari sifatida tashqi stimullarga tezkor javob qaytarish, axborotni qayta ishlash va harakatlarni nazorat qilishda muhim rol o'ynaydi. Periferik nerv sistemasining somatik va vegetativ bo'limlari organizmning tashqi va ichki muvozanatini saqlab turishga yordam beradi.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Guyton, A. C., & Hall, J. E. (2006). *Textbook of Medical Physiology*. 11th ed. Elsevier Saunders.
2. Bear, M. F., Connors, B. W., & Paradiso, M. A. (2015). *Neuroscience: Exploring the Brain*. 4th ed. Lippincott Williams & Wilkins.
3. Purves, D., Augustine, G. J., Fitzpatrick, D., Hall, W. C., LaMantia, A.-S., & White, L. E. (2012). *Neuroscience*. 5th ed. Sinauer Associates.
4. Xayitov, M., & O'zbekiston milliy entsiklopediyasi tahririyati. (2002). *Inson anatomiyasi*. Toshkent: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti.
5. Nazarov, R. (2009). *Fiziologiya asoslari*. Toshkent: Tibbiyot nashriyoti.
6. Tursunov, A. A. (2015). *Odam anatomiyasi va fiziologiyasi*. Toshkent: Tibbiyot fanlari akademiyasi.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

BOSHLANG'ICH SINFLARIDA TEKSHIRISH METODLARIDAN FOYDALANISH

Ahmedov Alisher

Denov tadbirkorlik va pedagogika inistituti o'qituvchisi

ahmedovalisher194@gmail.com

Xolmo'minova Oyjamol

Denov tadbirkorlik va pedagogika inistituti 2-kur talaasi

abdulxayrernazarov112@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasiga mos ravishda tekshirish metodlaridan samarali va maqsadga muvofiq tarzda foydalanish haqida bayon etilgan. Hozirgi shiddat bilan o'zgarib borayotgan zamaonda bolalarga dars berish jarayonida metodlardan unumli foydalanish darsning o'zlashtirish jarayoniga juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'z: Ta'lim, tarbiya, metod, natija, tekshirish, tushuncha, o'yin, jamoa.

Ona tili o'qitish metodikasining metodologik asosi borliqni bilish nazariyasidir. Bu fanning bosh vazifasi o'quvchilarning o'zbek tili lug'at boyligini to'liq o'zlashtirib olishlarini ta'minlashdir. Ma'lumki, jamiyatda til kishilar o'rtasidagi aloqaning zaruriy vositasidir. Tilning aloqa vositasi sifatidagi ahamiyati uzluksiz ortib boradi. Til borliqni oqilona, mantiqiy bilish vositasidir. Til birliklari yordamidagina bilish jarayonida umumlashtirish, tushunchani muhokama va xulosa bilan bog'lash amalga oshadi.

Ona tili o'qitish metodikasi-pedagogik va amaliy fan. Chunki u mazariyaga asoslanib o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash, o'stirishning amaliy vazifalarini bajaradi. Ona tili o'qitish metodikasi fani taim berish sharoitida ona tilini egallash, ya'ni nutqni, o'qish vayozi, fonetika, grammatikani bilib olish jarayoni hisoblanadi. Amaliy fanlar uchun amaliyot muhim rol o'ynaydi. Ona tili o'qitish metodikasi ham amaliy fanlar sirasiga kiradi. Har qanday amaliy xulosalar ishonarli bo'lishi, yuqori ilmiy darajada, ya'ni puxta va asosli bolishi lozim. Metodika tavsiyalarining ilmiy darajasi, nazariy tasdiqlanishi yuqori saviyada bolishi tekshirish metodlarining puxtaliliga ham bogliq.

Tekshirish metodlari 2 xil:

1. Nazariy tekshirish metodlari. U quyidagi hollarda tatbiq etiladi:

a) biror hodisaning metodik asosini, unga bog'liq boshqa fanlarni o'rganish, qo'yilgan gipotezani asoslash, izlanishning asosiy yo'nalishini belgilashda;

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

b) masala tarixi, chet el maktab tajribalari va mavzuga doir adabiyotlarni o'rganish, tajribani tahlil qilish, masalaning isbotlanmagan va hal qilinmagan o'rinlarini aniqlash, ilgari tajriba bilan hozirgi ahvolni taqqoslash, hozirgi kun talabi bilan baholashda;

2. Empirik metod (tajribaga asoslangan metod). Bu metod quyidagi maqsadlarda qo'llanadi:

a) bu metod o'qituvchilarning ish tajribasini o'rganish, yangiliklarini tanlash, umumlashtirish, baholash va ommalashtirish, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining darajasini aniqlash;

b) o'quvchilarni o'qitish jarayonini maqsadga muvofiq kuzatish (dars, uning biror qismini, oquvchilarning javobi, hikoyasini, yozma ishini tekshirish), o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyatini so'rovnoma orqali tekshirish;

Eksperimental tekshirish o'z maqsadining kengligi bilan farqlanadi: ayrim metodik usullarni tekshirishda ommaviylik talab qilinmaydi, ammo yangi dastur, yangi darsliklarni tekshirishga butun tuman, viloyat jalb qilinadi.

Eksperiment natijasini chiqarishda belgilangan baho meyoriga amal qilinadi. Bunday meyor aniq, barcha holatlar uchun ham bir xil bolishi lozim. Ona tili metodikasida yozma ishlarda yo'l qo'yilgan xatolar soni va xarakteri, malum bir vaqtda o'qilgan yoki yozilgan so'zlar soni, og'zaki hikoya va yozma inshoning hajmi va izchilligi meyoridan foydalaniladi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi o'z predmeti va vazifalariga mos ravishda quyidagi tekshirish metodlaridan ham foydalanadi:

1. Ilg'or o'qituvchilar ish tajribasini umumlashtirish.

2. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi sohasidagi meros va yangiliklarni o'rganish.

3. Talim berishning u yoki bu usullari va vositalarining foydali ekanini tekshirish.

4. Ona tilidan o'quvchilarning o'qishlari, yozuvi, mustaqil va ijodiy ishlari ustidan kuzatish olib borish.

5. O'quvchilar ijodiy faoliyatining natijalarini og'zaki qayta hikoyalash, yozma ish kabi usullar yordamida tahlil qilish.

Yuqoridagi tekshirish metodlari ushbu fanning davr talabidan kelib chiqib rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

K.D.Ushinskiy boshlangich maktab oquv predmetlari tizimida ona tiliga katta ahamiyat berib, uni markaziy va yetakchi predmet hisoblagan. Ona tili boshqa fanlarni oqitish vositasi hamdir: jamiyat tarixi ham, tabiiy fanlar ham ona tili yordamida organiladi. Demak, ona tili bolaning umumiy kamol topishida ham, bilim va mehnatga havasini uygotishda ham alohida orin tutadi.

Mustaqil respublikamizda har bir kishining savodxon bo'lishiga alohida e'tibor berilgan. 1-sinfga qadam qo'yayotgan bolaga barcha o'quv qurollarining sovg'a qilinishi birinchi prezidenti I. Karimov vaqtidan boshlangan bo'lib, bugungi kunga qadar kelajak avlodning savodxon, yuksak madaniyat egasi bo'lib yetishishlari uchun g'amxo'rlikning bir namunasi. Metodika bolarning nutqini boyitishni, savod chiqarishni, o'qitishni ta'minlovchi muhim fanidir. Bu fanga aloqador metodlarni o'rganish va boyitish kelajak avlodning bilim olishi uchun juda qulay imkoniyatlarini yaratib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch" 2008-yil Toshkent.
2. A.Xoliqov "Pedagogik mahorat" 2011-y Toshkent
3. O'.Tolipov, M. Usmonbekova. Pedagogik texnologiyalarning tabiiy asoslari. — T.: "Fan", 2006.
4. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim strategiyasi muammolari va ta'lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo'llari/ R. Safarova, U. Musayev, P. Musayev, F. Yusupova, R. Nurjanova. — T.: „Fan“, 2005.
5. Yu. K. Babanskiy. Hozirgi zamon umumiy ta'lim maktabida o'qitish metodlari. -T.: "O'qituvchi", 1990.
6. Ахмедов, А. (2024). BOSHLANG 'ICH SINF МАТЕМАТИКА DARSALARIDA MULTIMEDIALI O 'QITISH TEXNOLOGIYASINING ZAMONAVIY USULLARI VA TAMOYILLARINI QO 'LLASH. *Журнал универсальных научных исследований*, 2(5), 970-976.
7. Ахмедов, А. (2024). BOSHLANG 'ICH SINF МАТЕМАТИКА DARSALARIDA "GEOGEBRA" ILOVASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI (1-sinf misolida). *Журнал универсальных научных исследований*, 2(5), 977-985.
8. Ахмедов, А. (2024). BOSHLANG 'ICH SINF МАТЕМАТИКА DARSALARIDA MULTIMEDIYA TEXNOLOGIYALARIDAN

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

FOYDALANISHNING MUHIM OMILLARI. Журнал универсальных научных исследований, 2(5), 961-969.

9. Ахмедов, А. (2024). BOSHLANG 'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA ZAMONAVIY MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARASI. Журнал универсальных научных исследований, 2(5), 949-953.

10. Ахмедов, А. (2024). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КОМПЬЮТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ. Журнал универсальных научных исследований, 2(5), 937-942.

11. O'G'Li, A. A. N. (2024). BOSHLANG 'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA ZAMONAVIY MULTIMEDIA ILOVALARIDAN FOYDALANISH. Academic research in educational sciences, 5(2).

12. Ахмедов, А. (2023). ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. Предпринимательства и педагогика, 6(3), 119-127.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

OZIQ-OVQAT SANOATI VA KORXONA INFRATUZILMASINING AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH UCHUN RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR

TDMAU “Avtomatlashtirish va boshqarish” kafedrası o`qituvchisi:

Davlatova Sayyora

, sayyoradavlatova@gmail.com +998500040200

Kalit so`z: Raqamli texnologiyalar, robot, mahsulot, mashina, RFID teglari, vegetarianism.

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada oziq-ovqat sanoati va korxonalar infratuzilmasining axborot xavfsizligini ta'minlash uchun 10 ta raqamli texnologiyalari yoritilgan.

Raqamli texnologiyalar va mahsulotlardan sanoatning barcha tarmoqlarida foydalanish hajmi yildan-yilga muttasil oshib bormoqda. Turli ishlab chiqarish zavodning ishlashi uchun monitor ekranida jarayonni shunchaki kuzatadigan bir nechta odam kerak bo'ladigan vaqt uzoq emas.

Sanoatda xarajatlarni kamaytirish va foydani oshirish imkonini beradigan qanday ishlanmalar allaqachon qo'llanilmoqda? Va nima uchun ishlab chiqarishda axborot xavfsizligini ta'minlash juda muhim? Sizing e'tiboringizga oziq-ovqat sanoati uchun yechimlarning umumiy ko'rinishini taqdim etamiz.

1. Xom ashyoni robotli saralash

Xom ashyoni saralash jarayonida robotlar anchadan beri qo'llanilgan, biroq ko'pgina korxonalarda sabzavot va mevalarni saralash jarayoni zarar ko'rish xavfi tufayli haligacha qo'lda bajariladi. Robototexnika sohasidagi so'nggi ishlanmalar ushbu maqsadlar uchun maxsus moslashtirilgan moslashuvchan tutqich tizimidan foydalanishga imkon beradi. Bundan tashqari, mashinani ko'rish sohasida noyob ishlanmalar paydo bo'ldi, bu esa odamlarga ko'rinmaydigan sabzavot va mevalarning ichki shikastlanishini maksimal aniqlik bilan aniqlash imkonini beradi.

2. Kengaytirilgan haqiqat

Kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari nafaqat kompyuter o'yinlarida keng qo'llaniladi. Uzoqdan qo'llab-quvvatlashni ta'minlash uchun kengaytirilgan haqiqatdan foydalanishga imkon beruvchi tizimlar allaqachon mavjud bo'lib, u

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

odamning shaxsiy ishtirokisiz uskunaning nosozliklarini bartaraf etish imkonini beradi.

3. *Mashinani ko'rish*

Mahsulot ishlab chiqarishdagi jarayonlarni kuzatish uchun mashinani ko'rish insonning ko'rish qobiliyatini muvaffaqiyatli almashtiradi. Mashinalar minglab algoritmlardan foydalangan holda ma'lumotlarni to'plashni va tahlil qilishni o'rgandi, ular ishlab chiqarish jarayonlarining sifatini boshidan chiqarilgunga qadar, xodimlarning xavfsizlik qoidalariga rioya qilishlarigacha. Xodimlarning haroratini o'lchash va ular himoya niqoblaridan foydalanayotganligini aniqlash uchun texnologiyalar allaqachon ishlab chiqilgan, bu hozirgi pandemiya sharoitida ayniqsa dolzarbdir.

4. Ta'minot zanjirida sun'iy intellektni qo'llash

Jarayonlarning samaradorligini nazorat qilish va oshirish imkonini beradi. Sun'iy intellekt nosozliklar sabablarini tahlil qiladi va kelajakda ularning paydo bo'lishining oldini oladi. Yaqin kelajakda o'z-o'zini o'qitish tizimlari eng samarali ta'minot jarayonlarini to'liq avtomatlashtirish va qurish imkoniyatiga ega bo'ladi.

5. Katta ma'lumotlar

Katta ma'lumotlarni tahlil qilish tizimlari oziq-ovqat sanoatida faol foydalanishni topdi. Hozirda bashoratli tahlillar yordamida mahsulot sotishni bashorat qilish va ishlab chiqarishni sozlash mumkin. Bu supermarketlarda ma'lum mahsulot toifalarini sotish bo'yicha ma'lumotlarni avtomatik yig'ish, ularni tahlil qilish va ishlab chiqaruvchiga o'tkazish tufayli mumkin. Katta ma'lumotlarni tahlil qilish algoritmlari etkazib beruvchilarni qidirishda ham foydali bo'ladi xomashyo. Yerga o'rnatilgan sun'iy yo'ldoshlar va datchiklar ish faoliyatini tahlil qilib, nafaqat hudud, balki muayyan fermer xo'jaligining hosildorligini ham bashorat qilish mumkin.

6. Aqli qadoqlash

Xaridorga to'g'ridan-to'g'ri supermarket javonida sotib olayotgan mahsulot haqida to'liq ma'lumot olish imkonini beruvchi noyob usul. Smartfonga o'rnatilgan maxsus mobil ilova yordamida siz hamma narsani eng mayda detallarigacha ko'rishingiz mumkin: hosil qaysi hududda yig'ib olingani, qanday sharoitda yetishtirilgani, qayerda qayta ishlangani. To'ldirilgan reallik texnologiyalaridan foydalanish mahsulotni raqobatchilar mahsulotlaridan ajratib turadigan rang-barang videolarni tomosha qilish imkonini beradi.

7. Mahsulot sifati sensorlari

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

Mahsulot sifatini mashinada baholash uchun vizual tizimlar mahsulot nuqsonlarini maksimal aniqlik bilan aniqlash, aralashmalar tarkibi va yo'qligini kuzatish imkonini beradi. Mahsulotlarning yangiligini nazorat qilish va harorat sharoitlariga rioya qilishni nazorat qilish muhim omil bo'lib, bu tayyor mahsulotlarni savdo nuqtalariga etkazib berish tizimini optimallashtirish imkonini beradi.

8. RFID teglari

Ular ishlab chiqarish ob'ekti ichida ham, tashqarisida ham tovarlar harakatini kuzatish imkonini beradi va shu bilan korxonalarining ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini optimallashtirishga imkon beradi, inventarizatsiyani rejalashtirishdan mahsulotning yakuniy xaridorgacha bo'lgan yo'lini to'liq kuzatishgacha.

9. Sun'iy oziq-ovqat

Ta'mi bo'yicha boshqa toifadagi mahsulotlarga o'xshash oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyalari juda tez rivojlanmoqda. Vegetarianizmning tarqalishi bilan go'sht mahsulotlarini taqlid qiluvchi mahsulotlarga talab ortib bormoqda. Bugungi kunda sun'iy oqsil sintezini rivojlantirishda katta yutuq mavjud. Yaqin kelajakda vegetarianlar hayvonlardan kelib chiqadigan har qanday elementlarni to'liq chiqarib tashlagan holda zarur oqsillarni o'z ichiga olgan mahsulotlarni sotib olishlari mumkin.

10. Mahsulotlarni chop etish uchun 3D printer

Belgilangan parametrlarga muvofiq mahsulot tarkibini o'rnatishga imkon beradi. Skanerlangan mahsulotni aniq takrorlash uchun skanerlash moslamalarini o'z ichiga olgan modellar allaqachon mavjud. 3D printerlar bozori bir necha yo'nalishda o'sib bormoqda va rivojlanmoqda, keng ko'lamli sotish istiqbollari mavjud. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida innovatsion va raqamli texnologiyalardan foydalanishda ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida innovatsion va raqamli texnologiyalardan foydalanishda barcha ishlab chiqarish jarayonlarining axborot xavfsizligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratish lozim. Axir, nafaqat mahsulotning obro'si va sifati, balki ba'zan uning yakuniy iste'molchilarining hayoti va salomatligi ham bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Materiallardan foydalanganda ComNews ga havola kerak 1999 - 2024 © ComNews.ru
- 2.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

**BO‘RITANGLAY VA QUYONLAB KASALLIKLARINING YUZAGA
CHIQISH SABABLARI VA ULARNI OLDINI OLISH**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Abdullayeva I.B , Boyqulov T.T

**Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Termiz sh, Farovon massivi
43B-uy, e-mail: esadir_74@rambler.ru**

Annotatsiya. Bu nuqsonlar ilmiy tilda yuqori lab va tanglay kemtikligi xeylolizis deyiladi. Kelib chiqish sabablari juda ko‘p .Shuningdek, yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh, ayol yoki erkakning kimyo sanoatida faoliyat yuritib, texnika xavfsizligi qoidalariga rioya etmasligi, farzand ko‘rishni noto‘g‘ri rejalashtirish singari omillarning ham jiddiy ta‘siri bor. Lo‘nda aytganda, bolaning tug‘ma nuqson bilan dunyoga kelmasligi otaning ham, onaning ham sog‘lom hayot kechirishiga birdek bog‘liq.

Kalit so‘zlar: xeylolizis, ortodon, uranoplastika, logoped.

**ПРИЧИНЫ ПОЯВЛЕНИЯ ЗАБОЛЕВАНИЙ ГОРТАНИ И
КРОЛИКОВ И ИХ ПРОФИЛАКТИКА**

Абдуллаева .И.Б , Бойкулов.Т.Т

**Термезский университет экономики и сервиса, г. Термез, массив
Фараван, 43Б-дом, e-mail: esadir_74@rambler.ru**

Абстрактный. Эти дефекты по-научному называются хейлолизом расщелины губы и неба. Причин его возникновения немало, кроме того, серьезное влияние имеют такие факторы, как брак между близкими родственниками, неспособность женщины или мужчины работать на химической промышленности и несоблюдение правил технической безопасности, неправильное планирование рождения детей. эффект. Другими словами, тот факт, что ребенок не родится с врожденными дефектами, в равной степени зависит от здоровой жизни как отца, так и матери.

Ключевые слова: хейлолиз, ортодонтия, уранопластика, логопед.

**THE CAUSES OF THE APPEARANCE OF DISEASES OF THE
LARYNX AND RABBITS AND THEIR PREVENTION**

Abdullayeva I.B ,Boyqulov T.T.

**Termiz University of Economics and Service, Termiz city, Farovon massif
43B-house, e-mail: esadir_74@rambler.ru**

Abstract. These defects are scientifically called cleft lip and palate cheilolysis. There are many reasons for its origin. In addition, factors such as

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023


SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

marriage between close relatives, failure of a woman or a man to work in the chemical industry and not comply with the rules of technical safety, improper planning of having children have a serious effect. In other words, the fact that the child is not born with birth defects depends equally on the healthy life of both the father and the mother.

Key words: cheilolysis, orthodontics, uranoplasty, speech therapist.

Kirish. Tug`ma nuqsonlarni homiladorlik davrida aniqlash— Homiladorlikning 14-16 haftalarida o`tkaziladigan ultratovush tekshiruvi tug`ma nuqsonlarni aniqlab beradi. Xususan, lab va tanglay kemtiklarini ham shu davrda bilish imkoni mavjud. Agar tug`ilajak bolada kamchilik aniqlansa, ayol tug`ruqqa qadar nihoyatda yaxshi parvarish qilinishi lozim. Shuningdek, kamqonlik, infeksiyon kasalliklar, ovqat hazm qilish tizimining buzilishi, yuqori nafas yo`llari shamollashiga yo`l qo`yilmasa, kemtik rivojlanishini to`xtatishga muvaffaq bo`lish mumkin.



Davolash choralaridan so`ng , amaliyotdagi keyingi holatlar. Tug`ma nuqsonning turi va shakliga qarab, jarrohlik amaliyoti o`tkaziladigan muddatlar belgilanadi. Tug`ma nuqson bilan dunyoga kelgan chaqaloq amaliyotga qadar ortodon, pediatr va yuz-jag` jarrohi kuzatuvda bo`ladi. Misol uchun, yuqori lab kemtikligining bir tomonlama chegaralangan nuqsoni bilan tug`ilgan bolalarda jarrohlik amaliyoti olti oylikdan keyin o`tkaziladi. Chunki chaqaloq hayotining oltinchi oyiga kelib, birlamchi yuqori lab mushaklari va limfa tizimlari

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

shakllanishining birlamchi bosqichi tugaydi. Yumshoq tanglay kemtiklarida 1-1,5 yoshda, qattiq tanglay kemtigida esa yuqori jag`dagi barcha tishlar chiqib bo`lgach, 2-3 yoshlarda amaliyot o`tkaziladi.

Bir martalik jarrohlik amaliyotidan so`ng takroriy muolaja talab qilinmaydimi? Lab, yumshoq va qattiq tanglaydagi xastaliklarda jarrohlik amaliyoti faqat bir marotaba o`tkaziladi. Shundan so`ng bolaning 8-9 yoshida tish qatorlari me`yoriy holatga kelishi mumkin. Dastlabki amaliyotdan so`ng bemor ortodontik davo olishi hamda logoped, pediatr shifokorning muntazam ko`rigida bo`lishi lozim. Bola ulg`aygach, burun qanotining shakl buzilishi yuzaga kelsa, rinoplastika amaliyoti o`tkaziladi. Ayrim paytlarda bolaning 6-10 oyligida o`tkazilgan amaliyotdan so`ng u 6-7 yoshga etgach, labda ozroq shakl buzilishi yuzaga kelishi mumkin. Bunday hollarda labni korreksiyalash, ya`ni kichik nuqsonlarni tuzatish amaliyoti bajariladi.

Bolada tanglay yorining sabablari. Olimlarning fikricha, nuqsonning atigi 10-15 foizi genetik jihatdan aniqlanadi. Ya'ni, qarindoshlardan birining og'zi bo'ri bo'lsa ham, bolada xuddi shunday paydo bo'lish ehtimoli atigi 7% ga oshadi. Patologiyaning asosiy sabablari homiladorlikning dastlabki bosqichlarida aniq tashqi omillarning ta'siridir. Ko'pincha bu davrda ayol bolani ko'tarayotganini bilmaydi va homiladorlik paytida taqiqlangan giyohvand moddalarni iste'mol qilishni davom ettiradi, chekadi yoki spirtli ichimliklarni iste'mol qiladi. Bu homilaning rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi, suyak sintezi jarayoni buziladi. Homiladorlikning boshida ko'plab ayollarda immunitet pasayadi va hozirgi vaqtda olingan infeksiyalar homila uchun xavflidir. Qorin bo'shlig'ining shikastlanishi, radiatsiya, vitamin etishmasligi, erta abortlar, o'smalar va semirish xavfli. Hatto onaning yoshi va uning ruhiy holati ham yoriqli bolaning tug'ilish ehtimoliga ta'sir qilishi mumkin. Bo'rining og'zi jiddiy asoratlar bilan xavflidir,

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10, 31 Октябрь

shuning uchun uni davolash kerak. Afsuski, muammoning yagona yechimi jarrohlikdir. Davolash bir necha bosqichdan iborat bo'lib, birinchi operatsiya bir yilgacha amalga oshirilishi mumkin. Yoriqli ko'plab bolalar operatsiyadan oldin obturator, burun va og'iz bo'shliqlari orasidagi teshikni yopadigan protez kiyishadi. Bu chaqaloqning normal nafas olishiga yordam beradi, ovqatlanish jarayonini va nutqni shakllantirishni osonlashtiradi. Jarrohlikdan oldin ham bolani maxsus qoshiq bilan ovqatlantirish o'rgatiladi, chunki qo'shimcha qurilmalarsiz so'rish qiyin. Bunday maxsus parhezning mahorati operatsiyadan keyin ham foydali bo'ladi, chunki yara juda og'riqli va ovqatlanish mumkin emas.

